

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**Tabiiy fanlar
fakul'teti dekani:**
____ dots. A. Nazarov
“ ____ ” 2015 yil

**«Ximoyaga ruxsat beraman»
Kafedra mudiri
____ dots. O. Mirzamaxmudov
“ ____ ” 2015**

TABIIY FANLAR FAKUL'TETI

**5140600-geografiya kundizgi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat yo'nalishi
bitiruvchisi**

IBRAGIMOVA DILNOZANING

**“ 7-SINF GEOGRAFIYA DARSLARIDA O`RTA OSIYONING SUVLARI
MAVZUSINI O`QITISH USULLARI ”
mavzuidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:_____

Namangan – 2015 yil

“ 7-SINF GEOGRAFIYA DARSLARIDA O’RTA OSIYONING SUVLARI MAVZUSINI O’QITISH USULLARI ”

KIRISH

I-BOB: Geografiya darsliklarida ilg’or pedagogik ijodkorlikdan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari.

- 1.1. Prezident Islom Karimov asarlarida jamiyat rivoji va ta’lim-tarbiya masalalari
- 1.2. Ilg’or pedagogik ijodkorlik manbai - bu pedagogik tajribadir.
- 1.3. Pedagogik faoliyatda ilg’or pedagogik tajribalarni ommalashtirish

II – BOB: 7-sinf geografiya darslarida orta osiyoning suvlari mavzusini o’qitish usullari

- 2.1 7-sinf O’rta Osiyo va O’zbekiston tabiiy geografiyasi darsligining mazmuni
- 2.2 O’rta Osiyoning suvlari mavzusini o’qitish usullari
- 2.3 Tajriba sinov ishlarining natijalari

XULOSA

Foydalanilgan adabiyotlar

KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimiz o'z mustaqilligiga erishgach respublika xo'jaligining barcha soxalarida bo'lganidek ta'limda ham tub isloxat qilish kerak bo'ldi. Rivojlangan demokratik davlatlar darajasidagi yuksak ma'naviyatli, erkin fikrlovchi barkamol etuk shaxsni tarbiyalash hamda ta'lim-tarbiya jarayonini takomillatirish orqali ta'lim samaradorligini oshirish talab qilinmoqda. Xar bir shaxsning qobiliyati va iste'dodini rivojlantirish, takomillashtirish orqali jamiyatning ta'limga bo'lgan extiyojini qondirish talab qilinadi. Mamlakatimizda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risidagi" qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" ta'lim tizimining asosiy g'oyalarini o'zida mujassamlashtirgan.

Jamiyat taraqqiyotini xar tomonlama etuk o'qituvchilarsiz tasavvur etish qiyin. Bugungi kun talabi esa yangi texnologiyalarga asoslangan xolda geografik voqea va xodisalarni, geografik jarayonlarni, ularning sabab va oqibatlarini, qonuniyatlarini, tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy tushunchalarni bilim oluvchilarga etkaza olishga qodir yuksak malakali o'qituvchilarni tayyorlash xisoblanadi..

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov Ta'lim sohasida o'quv muassasalarini qurish, rekonstruktsiya qilish va kapital ta'mirlash borasidagi ishlar izchil davom ettirildi. O'tgan yili hammasi bo'lib 540 dan ziyod ob'ekt, shu jumladan, 380 ta maktab, 160 dan ortiq kasb-hunar kolleji va akademik litsey tubdan yangilandi. Mazkur maqsadlar uchun qariyb 550 milliard so'm sarflandi. Ushbu mablag'larning 120 milliard so'mdan ortig'i ta'lim muassasalarini o'quv, laboratoriya va ishlab chiqarish uskunalari, komp'yuter va mul'timedia vositalari bilan ta'minlash uchun ajratildi¹

Maktablarda geografiya o'qitishning maqsadi uchta yirik guruxga bo'linadi. Bular: ta'lim, tarbiya, bilish qobiliyatini rivojlantirish. Geografiya ta'lim

¹ И.А.Каримов 2015 йилда иқтисодиётимизда туб таркибий ўзгаришларни амалга ошириш, модернизация ва диверсификация жараёнларини изчил давом эттириш ҳисобидан хусусий мулк ва хусусий тадбиркорликка кенг йўл очиб бериш – устувор вазифамиздир Вазирлар Маҳкамаси мажлисидаги маърузаси
// Халқ сўзи 16 январ

maqsadlari va mazmuni dasturlar, darsliklar, qo'llanmalar, ta'lim vositalari va ta'limni uslub va usullari bilan bog'liqligi.

Mamlakatimizda izchil ravishda amalga oshirilayotgan kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy g'oyasi barkamol kasb egasini tarbiyalashdan iboratdir. Isloxotlar natijasi sifatida shakllantiriladigan barkamol shaxsning mustaqil va ijodiy fikrlash sifatlarini tarbiyalash umumiy o'rta ta'lim muassasalarining muxim vazifalaridan biri xisoblanadi. Bu borada o'quvchilarning darsdan tashqari mashg'ulotlarini samarali tashkil qilish aloxida ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim soxasida olib borilayotgan isloxotlarning tub mohiyati ta'lim mazmuni va shaklini takomillashtirishga qaratilgan fan texnika taraqqiyoti, jamiyatimizning demokratlashuvi, axborot texnologiyasining kirib kelishsh omillari o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlariga jumladan idrok eta olishi ta'savvur va tafakkurlash, aqliy qobiliyatining rivojlanishiga olib keldi. Zamonaviy ta'lim oldida turgan eng muxim vazifa o'quvchi shaxsining ilm olishga bo'lgan extiyojiga qaratilgan

Bu dolzarb muammoni hal etish uchun ta'lim muassasalari, xususan, maktab geografiya darslarida pedagogik ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy yo'nalishlarini ishlab chiqish zarur. Shu asnoda o'quvchilariga geografiya darslarida o'z yurti tabiati, iqlimi va ichki suvlarining mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida tutgan o'rni xaqida ta'lim-tarbiya berish, ularda geografik bilimlarga oid tushunchalarni shakllantirish muammosini pedagogika nuqtai nazardan tadqiq qilish zaruriyati ishning dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Pedagogika fanida ta'lim va tarbiya tushunchalari o'zaro bir-biri bilan aloqada bo'lgan, biri ikkinchisini to'ldirib boradigan inson faoliyatining turlari deb xisoblanadi.

Ta'lim esa insonning aqlini, moddiy borliq xaqidagi ma'lumotlarni, jamiyat va tabiat taraqqiyotining qonuniyatlarini, ilm-fan yutuqlari va ularning amaliyotga tadbqiqini o'rganish jarayonidir.

Geografiya tushunchasiga berilgan ta'rifda ma'lum darajada tarbiyaning ta'lim bilan uzviy bog'liqligi e'tiborga olingan. Biz o'rgangan pedagogik va psixologik adabiyotlarda insonning shaxs sifatidagi kamolotida aqliy va axloqiy tarbiyaga kuchli ahamiyat berilganligi aloxida ajralib turgani sezildi.

Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Unsurul Ma'aliy Kaykovus, Baxovuddin Naqshband, Amir Temur, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek, Zaxiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi buyuk alommalarimiz tabiat va jamiyat xaqida qimmatli fikrlar bildirganlar.

Ayniqsa Abu Ali ibn Sino inson salomatligini saqlash, tibbiy yordam ko'rsatish xaqidagi ta'limotlarini yaratganlarida birinchi o'ringa ekologik tarbiyani qo'ygan. Zaxiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma» asarida ta'rif-tavsif etgan kishilarning ko'pchiligidagi jismoniy sifatlarga yuqori baxo bergan. O'zi ham shox, sarkarda, olim va shoir bo'lishi bilan birga jismoniy mashqlar va chiniqishni o'ta qadrlagan inson ekanligi bayon etilgan.

Mazkur muammo uzoq yillar davomida pedagog olimlar tomonidan respublikada va xorijda keng tadqiq etilgan. Jumladan, Atutov P.R., Bato'shev S.Ya., Beshpal'ko V.P., Matveev L.P., Minaev B.N., Shiyan B.M., Ataev A.K., Abdullaev A., Yarashev K., Koral'evskiy V.V., Korotova I.V., Mitronin V.P., Kryuchkov A.F., Txorjevskiy D.A. va boshqalar muammoning texnologik asoslari, jismoniy tarbiya darslarini, darsdan tashqari ishlarini hamda yoshlarning faoliyatini nazariy ta'lim bilan bog'lab olib borish masalalarini o'z ilmiy tadqiqot ishlarida yoritganlar.

O'tmish allomalarining ilmiy mero merosini, avvalo geografik merosini, avvalo geografik merosini kulyozma manbalardan, sharkshunos olimlarning ilmiy sharklaridan, arabiy va forsiy kitoblardan tuplab, bizga bir tizim sifatida takdim etgan merosimizning tolmas tadkikotchisi, komusiy bilimi donishmand olim Xamidulla Xasanovdan avlodlar minnatdor bulishlari lozim. Rus sharkshunoslari V. V. Bartald, I. Yu. Krachkovskiy, S.P.Tolstov, o'zbek olimlari T. N. Koriniyoziy, Ya. Fulomov, B.Axmedov, P.B.Bulgakov, A. Urinboev, I. Muminov,

P. Shamshiev va boshqalarning O'rta Osiyolik allomalarning ilmiy merosi bilan tanishtirishda xizmatlari bekiyosdir.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Ushbu bitiruv malakaviy ishi oldidagi asosiy maqsad Tabiiy geografiya darslarida maxalliy ma'lumotlardan foydalanish xususiyatlarini o'rganish va taxlil qilishdan iborat.

Tadqiqot oldiga qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi bir qator vazifalarni amalga oshirish taqozo qilinadi:

- Metodik adabiyotlarda tabiiy geografiya darslarida maxalliy ma'lumotlar asosida bog'lanishini o'ziga xos xususiyatlarini mazmun – mohiyatidan kelib chiqqan xolda ularni ilmiy asosda o'rganish,
- Maxalliy ma'lumotlardan foydalanishni metodikasini ilmiy asosda tavsiflash.
- Namangan shaxridagi 7-maktab geografiya o'qituvchilarini ish faoliyatini o'rganish;
- 7-Sinf geografiya darslarida O'rta Osiyo ichki suvlari mavzusini o'qitishda noan'anaviy usul orqali dars samaradorligini oshirish

Maktab geografiyasini ta'limi oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalari O'zbekiston Respublikasi Xalq talimi vazirligi tomonidan 1995 yil 16 iyul'dagi xayat majlisi bayoni bilan tasdiqlangan «maktab geografiyasi qayta qurishning ilmiy uslubiy kontseptsiyasi»da umumiy tarzda quydagicha belgilab berilgan:

- dunyoni yaxlid idrok etishni qamrovda mushoxada yuritishni bir so'z bilan aytganda geogirafik madaniyatini tarbiyalash;
- tevarak atrofni qilishning muxum vositasi va uslubi bo'lgan xaritadan moxirona foydalana bilishni o'rgatish;
- xarqanday shaxs tabiat vajamiat bilan munosabatning eng oqil meorlariga amal qilishni buning muxim sharti esa, ularga kompleks yondashish zarurligini anglatmoq;
- xarbir fkgaroning o'zi yashab turgan muxitda samarali faoliyat ko'rsatishiga zarur bo'lgan bilim va malaka berish bilan ro'yobga chiqishi hamda riojlanishini taminlash.

Maktab geografiyasi talimi oldiga qo'yilgan yuqoridagi vazifalar

bajarilishini nazorat qilish Davlat talim standarti orqali amalga oshiriladi. Umumiy o`rta talim maktabda belgilangan geografiya ta`limi mazmuning majburiy minimumi hamda o`quvchilarning geografiyadan tayorgarlik darajasiga qyilgan minimal talablar majmuasini ifodalashdan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishining ob`ekti va predmeti.** Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish uchun Namangan shaxrining 7-maktabida 23 noyabr oyidan boshlab geografiya darslarida qo`shimcha adabiyotlardan foydalanish yuklamasini me`yorlash eksperiment – tajriba ishlari olib borildi. Bunda ikkitadan sinf eksperimental bo`lib, geografiya darslaridagi o`quv soatlari oldindan ishlab chiqilgan me`yor bo`yicha berildi. Nazorat qilingan sinflarda o`quv soatlari me`yorlashda geografiya o`qituvchisining konspekti asosida o`tkazildi. Tajribada jami 50 dan ziyod o`quvchilar qatnashdi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy-uslubiy asoslari O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning mavzuga oid asarlari, nutq va maqolalari, Oliy Majlisida qabul qilingan qonunlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, xorijlik va mamlakatimiz olimlarining iqtisodiy sohasidagi tadqiqotlaridan iborat. Ilmiy ishda tarixiy, mantiqiy fikrlash, taxlil, bashoratlash, guruhlash, va boshqa usullardan qo`llanilgan.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Yuqoridagi muloxazalarda ta`kidlanganidek, Pedagogika, psixologiya va metodika fanlari mustaxkam hamkorlik o`rnatgan xolda geografiya mashg`ulotlarini eng yuqori saviyada tashkil etish yo`llarini ilmiy asoslamoqda. Olimlar va mutaxassislar tomonidani ishlab chiqilgan metodik tavsiya va ko`rsatmalar nufuzli musobaqa va bellashuvlarda o`z samarasini ko`rsatgan xolda muvaffaqiyatlarning garoviga aylanmoqda. Binobarin, birinchidan, davlat tomonidan qabul qilingan qonun-qoidalarni mukammal bilish, ularning qanday maqsadlarga qaratilganligini yoshlarning ongiga etkazish va xayotga tadbiq etish uchun tinmasdan xarakat qilish. Ikkinchidan, geografiya mashg`ulotlari inson kamolotining zarur shartlaridan biri sifatida, bola shaxsi kamolotining ajralmas qismi bo`lib, xar tomonlama shakllangan komil insonni tarbiyalashning asosiy omillaridan biri deb

xisoblanishiga e`tibor qaratish. Shaxs kamolotining irsiyat, ta`lim va tarbiya, ijtimoiy muxit, shaxs faolligi omillarining jismoniy ulg`ayishdagi ta`sirini to`la namoyon etilishiga e`tiborni qaratilishi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa va adabiyotlar ro`yxatidan tashkil topgan. Ishning umumiy hajmi 64 bet, shundan bevosita matn qismi 56 bet, -2 ta jadval, 1 ta chizmadan iborat

I-BOB: Geografiya darsliklarida ilg'or pedagogik ijodkorlikdan foydalanishning nazariy asoslari.

1.1 Prezident Islom Karimov asarlarida jamiyat rivoji va ta'lim- tarbiya masalalari

Respublikamizda mustaqillik yillarida ta'lim-tarbiya tizimi sohasidagi islohotlar, ularni barkamol insonlarni tarbiyalashdagi o'rni va roli haqida borar ekan, quyida shu yillarda bu sohada erishilgan ulkan bunyodkorlik ishlari haqida mahalliy matbuotda yoritilgan ma'lumotlarni keltirishni lozim topdik. Chunki, O'zbekistonda sobitqadamlik bilan amalga oshirilayotgan bu boradagi islohotlar huquqiy Qonunlar va amaliy tadbirlar bilan mustahkamlanadi.

1991 yil O'zbekistonda Respublikamizning birinchi yurtboshimizning mislsiz jasorati, ona yurtga fidoyiligi, tinimsiz sa'y-harakatlari tufayli mamlakatimiz osmonida mustaqillik quyoshi porlay boshladi.

Mazkur yilda olamshumul ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy xujjatlar bilan bir qatorda ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilish bo'yicha ham dastlabki ulug' qadam qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga asosan 116 mingga yaqin pedagog xodimlarga yashab turgan uylari bepul xususiyashtirilib berildi, 35 ming pedagogga uy qurish uchun tomoqalar berildi.

1993 yil "Mustaqil taraqqiyotning hozirgi kunda to'la-to'kis to'g'ri yo'l ekanligi tasdiqlangan besh tamoyili" hamda 12 sentyabrda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini muhokamaga kiritish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.

1994 yil ta'lim-tarbiya sohasining sport va ma'naviyat-ma'rifat yo'nalishidagi rivojlanishi sermahsul bo'ldi. Shu yil 30 may kuni mamlakatimiz sporti, xususan, O'zbekiston tennisi tarixida yorqin sahifa ochildi. Poytaxtimizdagi "Yunusobod" sport majmuida bir hafta davomida "Prezident kubogi" xalqaro tennis turnir bo'lib o'tdi. O'zbekiston sportchilari erishgan ulkan yutuqlari Osiyo o'yinlari natijalaridan tan olindi.

Shu yil 15 oktyabrda Samarqand shahrida o'zbek millatining shon-shuhrati, yulduzlar sultoni Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligiga bag'ishlangan xalqaro anjuman bo'lib o'tdi.

Shu yil iyul oyida Respublika “Ma’naviy va ma’rifat” jamoatchilik markazi tashkil etildi. Respublikamizda jami 80 ming o’rinli 209 ta maktab qurilib, foydalanishga topshirildi.

1995 yil mamlakatimiz tarixiga “Iqtisodiyotni barqarorlashtirish yili” bo’lib kirdi. Ta’lim-tarbiya tizimini iqtisodiy zaminlarini yaratish yo’lidagi xarajatlar ham siyosiy, ham iqtisodiy, ham madaniy sohalarda o’z samarasini ko’rsata boshladi. Shu yil 1 yanvardan O’zbekiston Respublikasida yangi pasport amalga kiritildi.

1996 yili o’zbek xalqi tarixiga ajdodlarimizga xurmat ramzi sifatida “Amir Temur yili” bo’lib kirdi. Bu yil ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sohalarning barchasida bo’lganidan ta’lim-tarbiya tizimining yanada rivojlanishida ham samarali bo’ldi. Shu yili ta’lim-tarbiyaning ma’naviy asoslarini yanada mustahkamlash maqsadida 1996 yil 21 dekabrda “O’qituvchilar va murabbiylar kunini nishonlash to’g’risida” O’zbekiston Respublikasining Qonuni e’lon qilindi. Mazkur Qonunga ko’ra “1 oktyabr – O’qituvchilar va murabbiylar kuni” deb belgilanib, bu kun umumxalq bayrami kuni deb hisoblandi. Mamlakatimizda Yurtboshimiz tashabbusi bilan xalq ta’limi xodimlariga juda katta e’tibor qaratila boshlandi. Xalq ta’limi muassasalari rivoji va xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy ta’minotini yanada yuksaltirish yo’lida amaliy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Mustaqil yurtimiz taraqqiyotida 1997 yil ham alohida ahamiyatga molik bo’ldi. Bu yil jahon tarixi tajribasida misli ko’rilmagan demokratik islohotlar amalga oshirildi. Ta’lim-tarbiya sohasini ilmiy-ma’naviy asoslarini yanada rivojlantirishda “O’zbekiston Milliy entsiklopediyasi” ilmiy nashriyoti tashkil etildi, Prezidentimiz I.A.Karimovning “O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” nomli fundamental asari nashr etildi.

1997 yil O’zbekistonda ta’lim-tarbiya tizimini rivojlanishining uzoq muddatlarga mo’ljallangan dasturini yaratilishi yili bo’ldi. Shu yil avgust oyida O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasi butun mamlakatimiz xalqi qatori ta’lim tizimi xodimlari uchun ham eng muhim anjuman sifatida tarix sahifalariga kirdi. Ushbu sessiyada Kadrlar tayyorlash bo’yicha Milliy dastur

hamda “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun qabul qilindi. Sessiyaning 29 avgustdagi bo’lib o’tgan yig’ilishida Prezident I.A.Karimov “Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori” mavzusida ma’ruza qildi. Ushbu dasturiy ma’ruzada ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilishning ma’no-mazmuni, maqsad-vazifalari g’oyat teran asoslab berildiki, ular bugungi kunda ham yo’l-yo’riq sifatida amal qilmoqda. Ushbu sessiyadagi ma’ruzada belgilangan g’oya va vazifalarni qisqacha mazmunini quyidagi fikr-xulosalarda yaqqol ko’rish mumkin: “Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta’lim-tarbiyasini ko’rgan shaxslar kerak”¹, -degan mashhur fikr bugungi kunda ham eng dolzarb chaqiruv – da’vat sifatida jaranglab turibdi. Mazkur sessiyadagi ma’ruzasida yurtboshimiz ta’lim taraqqiyotining kelajakdagi asoslari va tamoyillarini belilab berdilar. Ular quyidagi fikrlarda o’z aksini topgan. Prezident yangi davr uchun munosib bo’lgan etuk kadrlarni tayyorlash uchun uzluksiz ta’lim, fan va ishlab chiqarishni uzviy bog’liqlikda olib borish zarurligini uqtiradi “Shuning uchun ham umumta’lim dasturlarini maktabgacha tarbiya, boshlang’ich, umumiy ta’lim va maktabdan tashqari ta’lim tarzida tuzsak maqsadga muvofiq bo’ladi”², deyiladi ma’ruzada. Ma’ruzaning xulosasida yurtboshimiz sessiya qatnashchilari e’tiboriga tarixiy da’vat bilan murojaat qildi: “Bizning ajdodlarimiz hamisha uzoqni ko’zlab yashagan. Millat, Vatan, xalq istiqboli degan muqaddas tushunchalar amma vaqt qalbimizning to’ridan joy olib, har birimizning hayotimizda charx urib turishi darkor”³.

1998 yil – “Oila yili”da – Vatan ichra kichik bir Vatan ta’lim-tarbiyaning ulug’ maskaniga nisbatan hurmat-ehtirom tuyg’ulari yanada kuchaydi, yosh oilalarni qo’llab-quvvatlash borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Bu yilda mamlakatimiz ijtimoiy hayotida ro’y bergan bunyodkorlik va g’oyaviy-tarbiyaviy ishlarning markazida ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish masalalari bo’ldi. Buyuk alloma, dunyo fani va madaniyatining rivojlaishiga ulkan hissa qo’shgan qomusiy olim Ahmad al-Farg’oniy tavalludining 1200 yilligi O’zbekistonda, shuningdek, YuNESKO qaroriga muvofiq butun dunyo miqyosida

¹ Баркамол авлод орзуси. Т.: “Шарқ”, 1999, Б. 15

² Баркамол авлод орзуси. Т.: “Шарқ”, 1999, Б. 24

keng nishonlandi. Farg'ona va Quva shaharlarida allomaning mahovatli xaykallari qad ko'tardi. Bu o'sib kelayotgan yoshlarimizda Vatan va uning o'chmas tarixiy merosiga cheksiz hurmat hissini kuchaytirdi, ta'lim-tarbiya tizimi bizda qadimiy, boy madaniy, ilmiy, ma'naviy asoslarga qurilganligi ta'kidlandi.

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq bolalar 6-7 yoshdan maktabning 1 sinfiga qabul qilish mumkinligi tasdiqlandi. Bu vazifa Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 maydagi 203-sonli qaroriga asosan tuman(shahar) qoshidagi xalq ta'limi boshqarmasi qoshida tashkil etilgan tashhis markazlari zimmasiga yuklatildi. Shu yilning so'ngida Prezidentimizning viloyatlar, shahar va tuman hokimlari bilan uchrashganlarida aytilgan, ta'lim-tarbiya tizimining oliy maqsadini belgilab bergan hur fikrlari quyidagicha jarangladi: “Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart” takroran aytaman: “mana shu ezgu maqsad bugungi kunda har birimizning hayotimiz mazmuniga aylanishi darkor”. Shundan boshlab yurtboshimizning ushbu da'vati hayotimiz mazmuniga, faoliyatimizning shioriga aylangan.

1998 yilda ta'lim-tarbiyaning eng chuqur negizini yaratgan islom musulmon olamida turgan hadis ilmining sultoni deb e'tirof etilgan Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yillik tantanalari Samarqandda bo'lib o'tdi. Unda Prezidentimiz yurtimizda ilm-ma'rifatni qadim-qadimdan rivojlanib kelganligini ta'kidlab shunday dedi: “Parvardigori olam buyuk zotlarni O'zi aziz etgan joylardagina dunyoga keltiradi. Bunday yurtlar esa er yuzida sanoqli. Biz shukronalik bilan aytamizki, Ona Vatanimiz Ollohning nazari tushgan ana shunday muqaddas diyordir”. Ta'lim-tarbiya tizimi ham ana shu muqaddas makon, ona Vatan, xalq kelajagiga monand rivojlanish zarur degan fikrlar ilgari surildi.

Solnomaning har bir yili o'z nomi va maqsadi bilan yurtimizda ma'rifat, ma'naviyat, ta'lim-tarbiya tizimini yanada rivojlantirishga qaratilgan bo'ldi. 1999 yilda o'tkazilgan keng miqyosdagi tadbirlar ham shunday ta'lim-tarbiyaning asosiy etakchisi ayollarga bag'ishlandi, zero ayollarsiz yosh avlodni tarbiyalash va

³ Баркамол авлод орзуси. Т.: “Шарқ”, 1999, Б. 30

voyaga etkazishni tasavvur qilish qiyin. Prezidentimiz tashabbusi bilan 1999 yil “Ayollar yili” deb nomlandi.

Shu yili yoshlarni ta’lim-tarbiyasiga bevosita ta’sir qiladigan ishlar: “Xotira maydoni”, “Xotira va qadrlash kuni”, xalq og’zaki ijodining buyuk namoyondalaridan biri “Alpomish” dostonining 1000 yilligini nishonlanishi, o’zbek xalqining mard va jasur o’g’loni Jaloliddin Mangubedi tavalludining 800 yilligini keng nishonlanishi ta’lim-tarbiya tizimini mazmunan boyishiga katta ta’sir ko’rsatdi.

2000 yil XX asr poyonidagi ulkan voqealarga boy bo’ldi, ta’lim-tarbiya tizimi tashkilan va mazmunan yanada boyidi. Prezidentimiz xalqaro axborot agentligi (Bi-bi-si) so’rovlariga ko’ra “Asr insoni” deya e’tirof etildi. Bu – O’zbekiston mustaqilligining asoschisi, o’zbek milliy davlatchiligi, milliy iqtisodiyoti poydevorining bunyodkori, milliy, tarixi, madaniy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirishning tashabbuskori va rahnamosi, O’zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o’rinni egallashida, o’zbek nomini butun dunyoga bunyodkor, ma’rifatparvar, taraqqiyparvar, bag’ri keng xalq sifatida tanitishda jonbozlik va qat’iylik ko’rsatib kelayotgan Prezident Islom Karimovning faoliyati va xizmatlari yana bir bor jahon miqyosida tan olinganligidan dalolat edi.

2000 yil “Sog’lom avlod yili” deya nomlangan Davlat dasturining asl mohiyatini Islom Karimov shunday ta’riflaydi: “Tarbiya tizimini shaxsan men, eng avvalo, sog’lom naslni, nafaqat jismonan baquvvat, shu bilan birga ruhi, fikri sog’lom, imyon-e’tiqodi butun, mard va jasur, vatanparvar avlodni tushunaman”. Ta’lim-tarbiya tizimining tarkibiy qismlari bo’lgan “Onalik maktabi”, “Tibbiy ishlar asosi”, “Balog’at davri” kabi dasturlar hayotga joriy etildi, “Oila dorilfununlari” ochildi.

Ta’lim-tarbiya tizimini mazmunan boyitishda ma’naviy va huquqiy ilm bilan Burxoniddin Marg’iloniy xizmatlari katta bo’lgan. Marg’ilon shahrida fiqh ilmining sultoni, buyuk vatandoshimiz Burxoniddin Marg’iloniy tavalludining 910 yilligi tantanali nishonlandi.

2001 yil O’zbekiston Mustaqilligining 10 yilligi tantanali nishonlandi.

“1991-2000 yillar mamlakatimiz va xalqimiz hayotida ulkan davr bo’ldi”, - degan edi. I.A.Karimov 2001 yil 1 sentyabrda bo’lib o’tgan bayram tantanasida. Shu yil xalqimizning muqaddas tarixiy yodgorligi “Avesto”ning 2700 yilligiga bag’ishlangan yodgorlik majmuasi bunyod etildi.

Mustaqilligimizning 10 yilligi munosabati bilan Toshkentda Alisher Navoiy yodgorligi majmuasini ochilishi ta’lim-tarbiya tizimini ma’naviy boyitishda alohida tarixiy voqea bo’ldi. Bugungi kunda ming-minglab odamlar, ular hazrati Alisher Navoiyning poyi-qadamlariga gulchambarlar qo’yib, uning yuksak ma’naviy-axloqiy o’gitlaridan bahra olmoqdalar.

2002 yil ta’lim-tarbiya tizimini insoniylik ruhida isloh etishda muhim sana bo’ldi. Chunki shu yil mamlakatimizda “Qariyalarni qadrlash yili” deb belgilandi. Masalaning mavzu bilan uzviy bog’liqligi qadrlash yilining mohiyatidan ko’zlangan maqsad va tarbiyaviy vazifalar bilan bog’liqligida ravshan ko’rinadi. Qariyalarni qadrlashning Davlat dasturi keksa fuqarolarga davlat va jamiyat omonidan diqqat-e’tibor, g’amxo’rlik uo’rsatishni nazarda tutgan holda, uning ta’lim-tarbiya sohasidagi ahamiyati katta bo’ldi. Ushbu dastur bolalar va yoshlarni o’zbek millatini azaliy qadriyatlari asosida tarbiyalash, ota-onalar hamda keksalarni izzat-hurmat qilish, qadrlash va ular to’g’risida g’amxo’rlik ko’rsatish ruhida tarbiyalash va ta’lim berish tizimini takomillashtirishga ham yo’naltirildi. O’quv yurtlarida ilm-fan va ma’naviyatni rivojlantirishda 2002 yil 24 aprelida Farg’ona zaminida ilk bor maktab o’quvchilari o’rtasida “Umid nihollari” sport musobaqalarining Respublika final bosqichi o’tkazildi. Prezidentimiz tashabbusi bilan o’tkazilayotgan bu tadbir yoshlarni sog’lom, har tomonlama barkamol qilib voyaga etkazish, iqtidorli sportchilarni tanlash va tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kichik olimpiyada nomini olgan bu sport musobaqalari yoshlarimiz o’z imkoniyatlarini namoyon etadigan maydon bo’lib xizmat qilmoqda. Ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirib borishda “Kamolot” YOshlar ijtimoiy harakatning o’rni va roli katta. Shu yili uning 1-chi Respublika anjumani bo’lib o’tdi. 2002 yilda mamlakatda amalga oshirilayotgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq ta’lim-tarbiya tizimini bosh vazifasi

o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy va ma'naviy salomatligini shakllantirishning sog'lom turmush tarzini tarbiyalash, sportga bo'lgan qiziqishni va muhabbatni singdirish va bolalar ommaviy sportini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining shu yil 24 noyabrda "O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida" Farmoni e'lon qilindi.

Ta'lim-tarbiyani birinchi maskani oila bo'lsa, ikkinchisi, faqat o'zbek millatiga xos tarbiya maktabi maxalladir. Prezidentimiz 2003 yilga "Obod mahalla yili" nomini berish taklifini o'rta tashlar ekan, shunday deydi: "Obod deganda, xalqimiz, millatimiz, nafaqat ko'rkam va chiroyli, shu bilan birga aynan tinchlik va osoyishtalik, o'zaro mehr-oqibat, ahillik, qut-baraka hukmron bo'lgan joylarni tasavvur qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mahalladek noyob tizim haqida ortiqcha gapirib o'tirishga ehtiyoj yo'q". Mahallada ta'lim-tarbiya amalga oshirildi, har bir odam, ayniqsa, yoshlar mahalladoshlarining ko'z o'ngida bo'ladi, uni xulq-atvori, mashg'uloti, bilimi, kasb-kori ularning nazari va muhokamasida turadi. Shunday ekan ta'lim-tarbiya tizimini isloh etish vazifalari birinchi navbatda mahalla muhokamasidan o'tadi. Ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar mahallani obodligi, tinchligi, farovonligi, ma'rifatli, madaniyatli, ma'naviy barkamol bo'lishi bilan bog'liq o'zgarishlar, yangilanishlardan iborat.

2003 yil ta'lim-tarbiya tizimini tarkibiy qismi bo'lgan yoshlar sportidir. Shu yil 5 iyun kuni Andijonda o'rta maxsus, kasb hunar ta'limi yo'nalishida tahsil olayotgan yoshlar o'rtasida "Barkamol avlod" sport musobaqalarining Respublika bosqichi o'tkazildi. Prezidentimiz tashabbusi bilan yaratilgan, o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol tarbiyalashni uch bo'g'ini ("Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada") tizimi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini amalga oshirishning muhim qismi bo'lib xizmat qilmoqda. Yurtboshimiz aytganlaridek, hech qanday vosita davlatimiz dovrug'ini sport kabi dunyoga tanita olmaydi. "Mehr va muruvvat yili" deb e'lon qilingan 2004 yil ham ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilishda samarali bo'ldi. Chunki, 2004 yili 21 mayida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2004-2009 yillarda rivojlantirish Davlat umummilliy

dasturi to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Bu Farmon g'oyat puxta, uzoqni ko'zlab ishlab chiqilganligi tufayli dasturilamal bo'lib xizmat qila boshladi. Sobiq Sho'rolar davridan moddiy-texnika bazasi o'ta zaif va nochor bo'lgan maktablar, o'quv muassasalari "meros" bo'lib qolgan edi. 9727 ta maktabdan 684 tasi avariya holatida bo'lib, o'quv-laboratoriya uskunalari bilan jihozlanish darajasi 24 foizni, zamonaviy komp'yuter texnikasi bilan ta'milangani atigi 15 foizni, zamonaviy sport zallarini yaroqliligi va jihozlanishi 20 foizdan kamni tashkil etar edi. 2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy Davlat dasturi bunday nuqsonlarga barham berdi.

Prezidentimiz tomonidan nomlangan yillarni mohiyat-mazmuni, ko'zlagan maqsadlarini ko'zdan kechirilsa, ularni mantiqiy yakdilligini, bir birini to'ldirib yanada yuqori marralar mo'ljalga olinganining guvohi bo'lamiz. Shuningdek, 2005 yil "Sihat-salomatlik yili" deb nomlangan, bu mamlakatimizda amalga oshirilayotgan "Xamma narsa inson uchun, insonning baxt-saodati uchun" degan bosh tamoyilni amaldagi isboti namoyon bo'ladi. Shunisi yana ham ahamiyatliki, ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilish, barkamol insonlarni tarbiyalash ularda asosiy maqsad va mezon qilib olingan.

Shu yildan boshlab maktablarimizda, maktab tizimi rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi asosida ta'lim-tarbiyaning butun bir tizimi quyidagi 5 ta yo'nalishlar bo'yicha isloh qilina boshlandi.

Yil boshida zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari bilan jihozlangan 533 ta kasb-hunar kolleji va 54 ta akademik litsey faoliyat ko'rsata boshladi. ta'lim-tarbiya sohasida maktab ta'limini Davlat umummilliy dasturi asosida rivojlantirish:

Birinchi yo'nalish: Umumta'lim maktablari binolarini va muhandislik kommunikatsiya infratuzilmasini tubdan yangilash va rekonstruktsiya qilish.

Ikkinchi yo'nalish: Maktablarni zamonaviy o'quv va o'quv-laboratoriya uskunalari, komp'yuter texnikasi, darsliklar va o'quv-uslubiy ma'lumotlar bilan jihozlash.

Uchinchi yo'nalish: ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini takomillashtirish.

To'rtinchi yo'nalish: Umumta'lim maktablarini malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, o'qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning samarali tizimini yaratish, ular mehnatini rag'batlantirishni kuchaytirish.

Beshinchi yo'nalish: Umumta'lim maktablari sport bazasini mustahkamlash va ularda sportni rivojlantirish.

2005 yil 25 noyabrda O'zbekiston Prezidentining "Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish va uni moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 227-sonli qaroriga asosan Vazirlar Mahkamasining shu masalaga bag'ishlangan "Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimi tasdiqlash to'g'risida"gi 275-sonli qarorining qabul qilinishi ta'lim-tarbiya tizimini yanada rivojlantirishning moddiy va ma'naviy stimullarini oshirishda muhim rol o'ynadi. Shunday qilib 2005 yil ham ta'lim-tarbiya tizimini isloh etish, ularni barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'рни va rolini oshirishda muhim bosqich bo'ldi. Bugungi kunda ham mamlakatimiz bo'ylab Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi doirasidagi bunyodkorlik, yangilanish ishlari, ularni o'quv-tarbiyaviy sohasidagi faoliyatini yangi zamon talablari darajasiga ko'tarish vazifalari jadal davom ettirilmoqda.

2006 yilda mustaqilligimizni tariflaydigan viqorli Manumentni Mustaqillik maydonida qad ko'tarishi yoshlarni vatanparvarlik va ezgulik ruhida tarbiyalashning eng ta'sirchan vositasiga aylangan. Shu yil 25 avgustda O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida" g'oyat muhim tarixiy qarorni imzoladi. Ushbu qarorda belgilangan vazifalar bugungi kunda ham qimmatli ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, ta'lim-tarbiya soasida ushbu muhim xujjat o'ziga xos dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu yilda "Xo'miyar va shifokorlar yili" nomi bilan muxrlanib ta'lim-tarbiya tizimini rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

"Ijtimoiy himoya yili" nomi berilgan 2007 yil ham mamlakatimizning

barcha sohalarida, shuningdek, ta'lim-tarbiya tizimi sohasida ham ulkan muvaffaqiyatlar va omadlar davri bo'ldi. Shu yili xalqimizni ijtimoiy himoyalashga qaratilgan qaror va farmonlar bilan bir qatorda "Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uni rivojlantirish Davlat dasturini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida"gi Prezident farmoni ayni bir vaqtda ta'lim-tarbiya tizimidagi islohotlarni muvaffaqiyatli o'tkazishga samarali ta'sir qildi. Mamlakatimizni ijtimoiy-siyosiy barqarorligi yana bir bor namoyon bo'ldi.

Shu yili Islom Konferentsiyasi tashkilotining ta'lim va madaniyat masalalari bo'yicha ixtisoslashgan tuzilmasi ISESKO tomonidan 2007 yilda Toshkent shahriga "Islom madaniyati poytaxti" degan yuksak nom berildi, anjumanda ma'ruza qilgan dunyoning ko'zga ko'ringan olimlari va jamoat arboblari O'zbekistonda maorif, ta'lim-tarbiya sohasida o'tkazilayotgan islohotlarni yuqori baholadi, ularni yuksak insoniy fazilatlarga ega bo'lgan ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tdilar. Shu yilda Marg'ilon shahrining 2000 yillik to'yi nishonlandi, I.A.Karimov nutqida bu qadimiy shaharning dunyo madaniyati va ma'naviyati, ta'lim-tarbiya sohasidagi o'rni va roli alohida ta'kidlandi.

2008 yil "YOshlar yili" nomini olib, ta'lim-tarbiya tizimida erishilgan yutuqlar sarhisob qilindi, yoshlar jamiyatning tayanchi va ishonchli hayoti ekanligi yana bir namoyon bo'ldi. Shu yil yosh avlod manfaatlarini ta'minlashni kuchaytirishga qaratilgan huquqiy bazani mustahkamlash, yoshlarning maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishlari uchun sharoitlar yaratildi.

Ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarni uzluksiz amalga oshirish ularni barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rni va rolini oshirishda bu borada qabul qilingan Prezident va hukumat qabul qilgan, qaror va farmonlar muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Masalan, shu yil Respublika Prezidentining 7 yanvardagi "Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014 yillarga mo'ljallangan davlat dasturini tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoyishlari ham

yoshlarning iste'dodi va iqtidorlarini qo'llab-quvvatlashda imzolangan muhim hujjatlardan biri bo'ldi. Aynan shu yo'nalishga qaratilgan xujjatlardan biri Vazirlar Mahkamasining "Ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori bo'ldi. Ta'lim tizimini zamonaviylashtirish borasida "Axborot resurs markazlar faoliyatini yaxshilash va takomillashtirish"ga qaratilgan chora-tadbirlar o'tkazildi. Viloyatimizda (Farg'ona) Quvasoy, Quva, Beshariq, YOzyovon, Farg'ona, Dang'ara tumanlarida yangi maktablar, ta'lim-tarbiya o'chog'lari qurildi, kapital ta'mirlandi.

Jahonning eng qudratli davlatlari chuqur iqtisodiy inqiroz azoblarini tortayotgan bir paytda mamlakatimiz rahbari 2009 yilni O'zbekistonda "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" deb belgilab, bu borada Davlat dasturi ishlab chiqishga bosh-qosh bo'ldi. Davlat dasturi asosida qishloqlarda ham keng ko'lamda bunyodkorlik, obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi, bu joylardagi ta'lim-tarbiya muassasalariga etarli mablag' ajratildi, qishloqlarning shahar qiyofasiga kirib borishida zamonaviy arxitektura asosida maktab, kollej, akademik litseylarni qurilishi muhim rol o'ynadi. Qishloqning madaniy va ma'rifiy o'zgarishi barkamol avlod tarbiyasida etakchi rol o'ynadi.

2010 yil "Barkamol avlod yili" deb nomlandi va bu yilda Prezidentimiz ta'lim-tarbiya sohasida qo'yilgan ulkan vazifa: "Davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bu – ma'naviy jihatdan barkamol insonni tarbiyalash, ta'lim va maorif tizimini takomillashtirish, milliy uyg'onish g'oyasi asosida ma'naviy va ruhiy jihatdan yangi avlodni voyaga etkazishdir" degan ezgu niyatni hayotga tatbiq etish yosh avlodning kamoloti va porloq kelajagini ta'minlash yo'lida olamshumul ishlar amalga oshirildi. Shu yili mamlakatdagi ta'lim-tarbiya muassasalarida ayollar va bolalar sportini rivojlantirishga qaratilgan muhim xujjatlar qabul qilindi, shulardan biri Prezidentimiz 2010 yil 28 iyulda imzolagan "Ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni bo'ldi. Mazkur Farmon yoshlarning avvalambor kasb-hunar kollejlari, akademik litsey, oliy ta'lim

muassasalari bitiruvchilarining tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlariga qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadini ko'zlagan va buguni ham dasturilamal bo'lib kelmoqda.

Shu yili 12 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida Prezident I.A.Karimovning "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish kontsepsiyasi" mavzusida qilgan ma'ruzasida davlat, jamiyat taraqqiyotining uzoq muddatlarga mo'ljallangan strategik vazifalari, jumladan, ta'lim-tarbiya sohasidagi keng qamrovli islohotlarni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi.

2011 yilda Yurtboshimizning "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" nomli asarini nashr etilishi mamlakatimizning, mamlakatimiz rahbarining tahlikali 1989-1991 yillarda olib borgan jo'shqin, jasoratli va serqirra ijtimoiy-siyosiy faoliyatini haqqoniy yoritilishida muhim manba bo'ldi. Asarning chuqur tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyati shundaki kitobga kiritilgan nutq va ma'ruzalarda o'sha davrdagi voqealar, tarixiy o'zgarishlar qanday murakkab va tahlikali vaziyatlarda yuz berishi, ularning tafsiloti, sabab va oqibatlari atroflicha yoritib berilgan. kitobda Sovetlar davrida ta'lim-tarbiya tizimi, ayniqsa maktablar, bog'chalar, sog'liqni saqlash punktlari g'oyat nochor, qarovsiz qolgani aniq misollar asosida ko'rsatib berilgan. mazkur kitob barcha o'quv-tarbiya muassasalarida tarixiy manba sifatida o'rganilmoqda.

Ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish va uni yanada rivojlantirish davlatimiz rahbarining doimo e'tiborida bo'lib kelmoqda. Jumladan, Prezidentimizning 2010 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasida avvalo xalq farovonligini oshirishga, ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan aniq taklif va mulohazalar ilgari surildi. 1911 yilda davlat byudjeti xarajatlarining 60 foizi ijtimoiy sohani rivojlantirishga ajratilgan bo'lsa, shundan 48 foizi ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarini rivojlantirishga sarflandi. Unda "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

yili” xodimlarini hissassi salmoqli bo’ldi.

Ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilish va barkamol avlodni tarbiyalash vazifalari 2011 yilda qabul qilingan Prezidentimiz farmonlari va hukumat qarorlarida o’z ifodasini topgan. Ularda maktablarni moddiy-texnika bazasini hamda yuqori malakali kadrlar bilan mustahkamlash, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar uchun ilg’or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini egallagan, kasbiy tayyorgarlikka ega, zamonaviy fikrlovchi kadrlarni tanlash va ular bilan ta’minlash tizimini tubdan yaxshilash, o’sib borayotgan zamonaviy talablarni hisobga olgan holda, ularni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish vazifalari belgilangan.

2012 yil Vatanimiz tarixiga “Mustahkam oila yili” bo’lib kirdi, uning maqsadi oilalar farovonligi va yurt obodonligini ta’minlashdir.

Bu yil boshidanoq Prezidentimiz tomonidan “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko’taradigan yil bo’ladi” deb nomladi. Ta’lim-tarbiya tizimini yuksaltirishda ham shunday holat yuz beradi va bermoqda. Chunki mamlakatimizning mustaqil taraqqiyot yo’lidagi davlat siyosatining eng ustuvor yo’nalishlaridan biri yuksak ma’naviyatli, jismonan sog’lom, har tomonlama barkamol avlodni voyaga etkazishdi. O’zbekiston barkamol avlodni voyaga etkazish to’g’risidagi tashabbusi va dasturi jahon hamjamiyatini e’tiborini tortib kelmoqda. 2012 yil 17 fevral kuni Poytaxtimizdagi yangi qurilgan Simpoziumlar saroyida Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan Xalqaro konferentsiyaning muhokama mavzui ham ta’lim-tarbiya, yangi avlodni voyaga etkazish masalasiga bag’ishlandi. Unda “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzui keng muhokama etildi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti 2012 yil 28 mayd kuni “Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta’minlash” to’g’risidagi xujjatni imzoladi.

Yuqorida istiqbol yillarida ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilish va ularni

barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'zni va roli masalasi muhim sanalar, voqealar, qaror va farmonlar qisqacha ko'rib o'tildi. Ular shuni tasdiqlaydiki, ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish, yangi barkamol avlodni voyaga etkazish masalasi hamma vaqt Yurtboshimiz, Respublika hukumatining diqqat markazida bo'lib, jamiyatimiz taraqqiyotining eng ustuvor yo'nalishi sifatida qarab kelingan.

O'zbekiston, o'zbek xalqi mentaliteti, tarixiy merosi, eng muhimi olamshumul kelajak maqsadlarga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya tizimi va yangi avlod tarbiyasi mustaqillik davrining barcha yillarida, muntazam, izchil, jamiyatning ob'ektiv etiyoji va qonunriyati sifatida rivojlanib kelmoqda.

1.2. Ilg'or pedagogik ijodkorlik manbai - bu pedagogik tajribadir.

Pedagogik ijodkorlik manbai - bu pedagogik tajribadir. Pedagogik tajriba - muammoli vaziyatlarga juda boydir. Ilg'or pedagogik tajriba deganda, biz pedagogning o'z pedagogik vazifasiga ijodiy yondoshishini, o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasiga yangi, samarali yo'l va vositalarni qidirib topishini tushunamiz.

Ijodiy ishlaydigan pedagog faqat o'quvchilarni muvaffaqiyatli o'qitish va tarbiya berish, ilg'or ish tajribalarini o'rganish bilangina cheklanib qolmasdan, taraqqiyotchilik ko'nikma va malakalariga ham ega bo'lishi zarur. Xozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti pedagogning ijodkor bo'lishini, fanning muxim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita bilish, fan yutuqlarini o'quvchilarga etkaza olishi, tadqiqot ishlariga o'rgata olishini talab qiladi.

Pedagogik tajriba pedagogning faoliyatini samarali tashkil qilish, ta'lim oluvchilarni tayyorlashning xar bir vaziyatida maxoratning yuqori darajasiga erishishda uzluksiz ravishda olib boriladi. Pedagogik maxorat o'z-o'zicha vujudga kelmaganidek, tajriba ham xech bir xarakat, qiziqish va o'rganishsiz, sinovsiz, tavakkal qilishsiz yuzaga chiqmaydi. Pedagogik faoliyatning eng zaruriy va emotsiyalarga, xissiyotlarga boy bo'lishini xisobga olsak, juda og'ir muammolar, dars jarayonlaridagi kutilmagan xolatlar, endi o'rganayotgan o'qituvchining faoliyati ham o'z fanining moxir ustasi bo'lgan o'qituvchiga tajribasini tinimsiz oshirib borishiga imkon yaratadi. Tajribali pedagoglar doimo o'zlarida nimanidir,

qandaydir qobiliyatini namoyon qilayotgan yoki rivojlantirayotgan bo'ladilar.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun xar bir o'qituvchi pedagogik maxoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik maxorat egasi oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi. Ijodkorlik uning hamisha hamkori bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik maxorat bo'lishi mumkin.

Pedagogik maxoratning asosiy negizi bu – kasbga oid bilimlarni puxta o'zlashtirishdan iboratdir. O'qituvchi o'quv yurtidayoq ilmiy bilimlar sistemasini puxta egallab olishi kerak. Pedagogik maxoratni egallashda psixologiya va pedagogika faniga doir bilimlar katta rol o'ynaydi. Ilmiy psixologik va pedagogik bilimlar sistemasining mavjudligi o'qituvchiga nafaqat o'z sinfini hamda ayrim o'quvchilarni o'rganish va ularning to'g'ri fe'l-atvorlarini tushunishgagina emas, balki bolalar jamoasi va uning xar bir a'zosini rivojlanish istiqbolini ham belgilash imkonini beradi.

O'zgalar xolatini tushuna olish o'qituvchi uchun muximdir. Sababi u qanday xolat, sharoitda o'sgan o'quvchilarga dars berayotganligini bilishi lozimdir. O'quvchilarning yurish–turishi, o'tirishi, xarakatidan ularning qay xolatda yurganliklarini bilish mumkin.

O'zini namoyon qila olish - bu bir qiyin yoki narsa orqali emas, balki bilim, malaka, ko'nikma, odob–axloq, muomala, nutq, munosabat orqali o'zini namoyon qila olishdir. Bunday professional o'qituvchi bo'lish uchun pedagog madaniyat ko'rsatkichlariga erishishi lozim.

Madaniyat atamasi lotincha bo'lib, u tuproqni ishlash ma'nosini bergan bo'lsa, xozirgi vaqtda esa, umumiy xolda inson madaniyatni, jamiyatni qayta qurish faoliyati va uning natijasidir, deb tushuniladi.

Moddiy va ruhiy madaniyat jamiyat xayoti tavsifining katta qismidan iborat. Ijodkor pedagogning o'zi esa yo'lni o'zlashtirib, mazkur jamiyatning o'ziga xos bo'lgan boyliklari, an'analari va madaniyatining usullari hamda ko'nikmalarini o'zlashtirish jarayonida shakllanadi. Shunday qilib, mukammal o'qituvchi uumuman soniy madaniyatning vakili va taqdim etuvchisidan iborat.

Fanda madaniyat mohiyatiga uch xil qarash tushuniladi: aksiologik, faoliyatli

va shaxsiy.

Aksiologik qarashda pedagogika va tarbiyadagi yo'nalishlar ko'rib chiqiladi. Faoliyatli qarash pedagogik metodlar va vositalar mohiyatini amalga oshirishni tadbiiq etish imkonini beradi. Individual-shaxsiy rejada o'qituvchining pedagogik madaniyati uning kasbiy faoliyatidagi tavsifining mohiyatidan iborat, deb tushuniladi. Bunday qarash o'qituvchini umuminsoniy madaniyat va pedagogik boyliklarni, u orqali tarbiya va ta'limning madaniy boyliklarini bir avloddan ikkinchi avlodga tashuvchi vakili sifatidagi shaxs, deb qarash imkonini beradi. Pedagogik madaniyatning umuminsoniy shakllari kabi, moddiy va ma'naviy shakllarda mavjud bo'ladi. Pedagogik bilimlar, nazariyalar, kontseptsiiyalar, insoniyat va buyuk allomalar tomonidan to'plangan pedagogik tajriba hamda kasbiy-etikaviy normalar-me'yorlarning barchasi pedagogik madaniyatning ma'naviy-ruxiiy boyligini tashkil etadi. Pedagogik madaniyatning moddiy boyligi o'qitish va tarbiya vositalaridir.

O'qituvchining umumiiy madaniyati uning ijtimoiy-ahamiiyatli tavsiflarining kasbiy faoliyatda amalga oshgandagi etukligini ifodalaydi. Madaniyat shaxsning rivojlanishi, uning ruxiiy kuchlari va qobiliyatlarining amaliiy faoliyatida amalga oshish darajasi va xokazo. Insonning madaniy rivojlanishi - bu uning bilimlari, ishonchlari, qobiliyatlari, xulqining muxit tomonidan rivojlanish jarayonidir.

O'qituvchining kasbiy madaniyati uning kasbiy faoliyat doirasidagi, uning shaxsiy sifat tavsifining mohiyati-tizimli ta'limdan iborat.

O'qituvchining pedagogik madaniyati tashkil topgan ko'rsatgichlar darajasiga va asosiiy tizimli komponentlariga quyidagilar kiradi:

A) pedagogning intellektual rivojlanish darajasi (eng avvalo, pedagogik tafakkurning rivojlanishi);

B) pedagogik faoliyatning xar tomonlama tashkil topishi va darajasi;

V) asosiiy kasbiy pedagogik etika, ma'naviiy xarakter va odob madaniyati;

G) o'zaro munosabat madaniyati;

D) so'zlashuv madaniyati;

E) tashqi ko'rinish madaniyati va boshqalar.

Pedagogik fikrlash madaniyati bo'lgan o'qituvchi tafakkuri –dunyo-qarashining uch bosqichini o'z ichiga oladi: birinchisi metodologik dunyo qarashdagi pedagogik ishonchdir. Metodologik tafakkur o'qituvchiga o'zining kasbiy faoliyatiga to'g'ri qaray olishiga, gumanistik strategiyani ishlab chiqishiga imkon yaratadi. Pedagogik fikrlash madaniyatiga pedagogik taxlil va sintez qobiliyatining rivojlanishi, fikrlashdagi tanqidiy kurash, mustakillik, kenglik, epchillik, faollik, tezlik, kuzatuvchanlikning rivojlanishi, pedagogik xotira va boshqalar kiradi.

Pedagogik tafakkurning ikkinchi bosqichi - taktikaviy dunyoqarash bo'lib, u o'qituvchiga pedagogik fikrlash, pedagogik jarayonning moddiylashuviga imkon yaratadi.

Uchinchi bosqichi umumiy pedagogik konuniyatlarni, real pedagogik faoliyatning unikal xodisasi bo'lib xisoblangan bo'lim-bo'limlarga tadbiiq qilishda namoyon bo'ladi. Bu tezkor fikrlashdir.

Pedagogik madaniyat tuzilmasida uning odob-axlok bo'limi muxim o'rin egallaydi. Bu pedagogik ishonch jarayonining shakllanishi, natijasi va o'qituvchining o'z qiziqishlarini ko'proq aniqlash jarayonidir. O'qituvchi, kasbiy muxitdan relokstin jarayonga, o'zining tutgan o'rnini yangilashga faol kirib borishi zarur. Pedagogik madaniyatning kasbiy faoliyatiga bog'liq tashkil etuvchisi pedagog tomonidan o'zining pedagogik qobiliyatlarining barcha spektrini bilib olganligini xarakterlaydi, bu esa pedagogik faoliyat muvaffaqiyatining nishonasi, pedagogik xatolarning oldini olish va nixoyat, pedagogik qobiliyat usullarini egallanganligidan iborat. Ma'naviy madaniyat etuk bilimlarning nazariy darajasi xolatida shakllanuvchi axloqiy bilimni o'z ichiga oladi. Bu kasbiy pedagogik etikadan iborat.

Pedagogik aloqa qilish madaniyati suxbatdoshni eshitish va eshita olishda, savollar bera olishda, aloqani amalga oshirib boshqani tushuna olishda, muloqotning qiyin xolatlarini ko'ra olish va odamlardagi ta'sir xolatini to'g'ri taxlil qila bilishda, muloqotga tayyorlanish va muloqotga bo'lgan xoxishlarda ko'rinadi.

Pedagog uchun eng zaruri nutq madaniyatini egallashdir. O'qituvchining nutqi kundan-kunga o'quvchilar uchun ibratli bo'lib borib, ularning nutq madaniyatini shakllantirishga yordam berishi kerak. Nutqning grammatik to'g'riligi, uning leksik boyligi, yaxshi ifodalanganligi, obrazliligi, nutq texnikasini egallaganligi o'qituvchining turli xil kasbiy masalalarni sifatli echishiga imkon beradi. O'quvchilarning yangi materialni tushunib va o'zlashtirib olishlari uchun o'qituvchi nutqining takomillashganlik darajasi muxim ahamiyatga egadir. Bolalar pedagogning nutqiy ma'lumotlariga sezgir bo'ladilar. Biror bir tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilinishi bolalarda kulguni chaqiradi.

Nutq insonning ongida paydo bo'lgan fikrning nutq tovushlariga til yordamida ko'chishidir. Nutq ta'sirli yoki ta'sirsiz, to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishi mumkin.

Nutq orqali kishi xolatini tushunish – kishilar o'z nutqlarida o'zlarida kechayotgan jarayonni namoyon qiladilar. Shu xolatni tushunishdir.

Monoton nutq bolani zeriktiradi, noaniq intonatsiya esa yaxshi o'zaro yaqin suxbatning uyushtirilgandan baland ton bolalarda ishonchsizligini keltirib chiqaradi.

Tovush odamlarda tabiatan beriladi, ammo bu esa juda ham ko'p uchraydi. Xamda yaxshi tovush maxsus mashqlarsiz yillar o'tgan sari buziladi, o'zgaradi.

Pedagogik nutq quyidagilarni ta'minlab berishi mumkin:

A) pedagog va o'quvchilar orasida o'zaro ta'sir etish va muloqotning natijaliligini;

B) faoliyat motivlarini, tushunchalarni to'g'rilash va shakllantirish maqsadida o'quvchi, bolalar tafakkuriga, xis–tuyg'ulariga ijobiy ta'sir etish kerak;

V) ta'lim berish jarayonida bilimlarni to'liq tushuntirish va mustaxkamlash, o'zlashtirib olish;

G) o'quvchilarning amaliy va o'quv faoliyatini samarali tashkil etish;

O'qituvchi nutqining o'ziga xosligi - o'quvchilarga yo'nalganligi bilan bog'liqdir. Kuzatuvchan o'qituvchi mavzuni tushuntirishda o'quvchilarga qanday ta'sir etishni xisobga olgan xolda ish yuritadi.

O'qituvchi nutqiga qo'yiladigan talablar, quyidagilardan iborat funktsiyalar bilan belgilanadi. Asosiy funktsiyalardan biri bu bilimlarni to'liq uzatishni ta'minlab

berish. Yangi bilim berishda o'qituvchi o'z nutqi orqali faqatgina yangi bilimlarni berib qolmasdan, balki xis-tuyg'ulariga ham ta'sir etishi kerak.

Pedagogning tashqi ko'rinish madaniyati, uning tashqi ko'rinishga moslik darajasi va pedagogik faoliyati bilan baxolanadi. Keng fikrlilik, tartibli, odobli, bosiqlik va o'zini-o'zi yaxshi boshqara olish kabilar pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatli bo'lishiga olib keladi.

Pedagogik maxoratning maqsadi va vazifalari.

«Pedagogik maxorat» bir kategoriya sifatida o'zining ilmiy asoslariga ega. 1987 - 1997 yillardagi ilmiy yondoshuvlar bu favqulodda xodisaga nisbatan quyidagicha xulosa qilishga imkon berdi:

Pedagogik maxorat kasbiy faoliyatdagi individullikning yorqin ko'rinishi sifatida tushuniladi.

Pedagogik maxorat kategoriyasi kasbiy faoliyat nuqtai nazaridan kishining individualligini xarakterlaydi.

Xozirgi tadqiqotlarda pedagogik maxoratning o'ziga xosligi quyidagi kategoriyalarda jamlanadi: A) pedagogik maxorat; B) pedagogik ijod; V) novatorlik; G) kasbiy bilimdonlik; D) faoliyat uslubi; E) innovatsion faoliyat; J) pedagogik texnologiyalar; 3) maxorat.

Turli tadqiqotchilar ishlarida ayni bir xodisani tasvirlash uchun turlicha tushunchalardan foydalanish, boshqacha ma'no va mazmun tomonlariga ega. Turli mualliflar asarlarida pedagogik maxoratning yagona, tan olingan ta'rifining yo'qligi uni tadqiqotning jonli jarayoni, deb xulosa chiqarishga asos bo'ladi.

Tushunchalar, fikrlarning turli-tumanligi bu xodisaning murakkabligi va ko'p qirraliligidan dalolat beradi.

Maxorat o'quvchilar tomonidan ularning sotsial etuklikka erishish darajasiga qarab bosqichma-bosqich egallanadi. Sotsial etuklik komponentlari pedagogik maxorat komponenti bilan quyidagi nisbatda bo'ladi. Bo'lg'usi pedagogning sotsial etuklik komponentlariga quyidagilar kiradi:

- sotsial o'z-o'zini belgilash - o'zining pedagogik qobiliyatlari va e'tiqodini namoyon qilish;

-sotsial faollik - odamlar bilan ishlay olish va boshqalarni tarbiyalash tajribasini takomillashtirish;

-sotsial mas'uliyat - o'qituvchining bilimdonligiga aylanadigan bilimlardir.

Pedagogik maxorat asoslariga kasbiy pedagogik bilimlar, insonparvarlikka yo'nalganlik, pedagogik texnika, kasbiy pedagogik faoliyatni amalga oshirish tajribasi kiradi. Maxoratning shakllanish bosqichlariga:

reproduktivlik, ijodiylik, novatorlik kiradi.

Pedagogik maxorat komponentlarini xosil qiladigan quyidagi malaka guruxlari farqlanadi:

-loyixalash,

-konstruksiyalash,

-tashkilotchilik,

-muloqot,

-bilish va reflektivlik.

Pedagogik maxoratning o'rganish predmeti pedagogik maxorat, maqsadi bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik bilimlarni amaliyotda maxorat bilan qo'llash malakasini tarbiyalashdan iborat. Maxoratga erishish yo'llarini ko'rsatish, ya'ni maxoratli, ijodkor, tajribali pedagogni etishtirishdir.

Pedagogik maxorat - bu faxm-farosat bilan ta'lim-tarbiya jarayoniga xabarlik qilish, tarbiyalanuvchini qalban xis qilish va tarbiyalanuvchiga avaylab, ijodiy dalillik, ilmiy taxlil va istiqbolni xisobga olgan xolda yondashishdir.

Pedagogik maxoratga pedagogik bilimlar, pedagogik farosat, xis etish, pedagogik malaka, ilg'or pedagogik tajribalarni o'zlashtirish kabilar kiradi.

Xar qanday vositani qo'llash turli xil omillarga bog'liq xolda tanlanadi, bu tarbiyalanuvchini psixologik xolati, bilim darajasi, tarbiya muxiti va boshqalar bilan bog'liq (masalan, rag'batlantirish). Demak, pedagog bu xolda barcha omillarni xisobga olishi, tarbiyalanuvchi shaxsini yaxshi o'rganishi va rag'batlantirish usulini to'g'ri, o'z o'rnida qo'llay olishi uning pedagogik tajribasi mavjudligidan dalolat beradi.

Barcha pedagogik vositalarni qo'llashda jamoani daqiqa sayin o'zgarib

boruvchi vaziyatini ham xisobga olish talab etiladi.

Asosiy pedagogik maxoratning talablari: bolalarga ishonch bilan qarash, talab va ishonchning birligini ta'minlash, xurmat qilish, insoniy munosabatda bo'lish xisoblanadi.

Pedagogik maxoratni egallashning yo'llari.

Pedagogik maxoratni egallashning asosiy ikki yo'li bor:

1. O'qituvchi yordamida pedagogik maxoratni oshirish (ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish).

2. Mustaqil ishlash (kasbiy tayyorgarlikni, bilimdonlikni oshirib borish). Metodik va maxoratga tegishli adabiyotlarni o'qish, pedagogik ko'nikmalarni xosil qilish. Bunda pedagog o'zida o'quvchilarga nisbatan muxabbat, o'quvchilar bilan muloqot qilish ehtiyojini tarbiyalashi kerak. Muomalaning barcha bosqichlarida xissiy osoyishtalikni vujudga keltirish, o'quvchini tinglash va o'z fikrini to'g'ri ifoda etish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

Pedagogika sohasida inson omilini bosh vazifa qilib olish, xar biri kishining o'z o'rnida vijdonan va mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalangan xolda ishlashga erishish ta'lim-tarbiyaning asosiy tajribasi sanaladi. Pedagogik faoliyatda muallimning ijodiy mehnatini rivojlantirmasdan bunga erishish mumkin emas. Shuning uchun pedagog jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlar mohiyatini tushunishi, o'zi qilayotgan ishning ahamiyatini bilishi juda muximdir. Xozirgi zamon o'qituvchisi bilimlarning keng ko'lamdagi zaxirasiga, pedagogik maxoratiga va obro'ga ega bo'lishi kerak. Xozir hamma joyda faqat oliy ma'lumotli o'qituvchilar tayyorlash uchun sharoitlar yaratildi. Lekin, e'tirof etish kerak: o'qituvchi o'quv yurtida qanchalik etuk ta'lim olgan bo'lmasin, baribir u doimo malakasini va tajribasini oshirish va umumlashtirishga muxtoj bo'ladi.

Pedagog o'z faoliyatini xar qanday sharoitda ham xayotiy jarayonning asosiy shakllaridan biri sifatida anglashi muxim omildir. Bunday tushuncha uning shaxsiy sifatleri va kasb maxoratini rivojlanishi uchun katta ahamiyatga egadir.

O'qituvchining o'ziga xos kasb xususiyatlarini aniqlangandan keyingina malaka oshirishning mazmuni, shakllari va usullarini unga mos tarzda tashkil etish

mumkin.

Pedagogik maxorat fanining vazifalari: tarbiyaning mohiyatini va shaxsni xar tomonlama taraqqiyot ettirishda tarbiyaning rolini ochib beradi, tarbiyaning maqsadi, mazmuni, usullari, uni tashkil etishdagi shakllari o'rtasidagi bog'lanishlarni ko'rsatadi: shuningdek pedagogik maxorat fani o'z taraqqiyoti davomida ta'lim — tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtiradi, tarbiyaning kelgusidagi rivojlanish

istiqbollari yo'llarini yoritib beradi, tarbiyaviy ishlarning jamiyatimiz xayotidagi o'rnini oshiradi. Pedagogik texnika pedagogga o'quv faoliyatida ham zarur bo'lgan umumiy pedagogik malakalar majmuidan tashkil topadi.

Pedagog umuminsoniy qadriyatlarni ijodiy o'rganib, ta'lim - tarbiya jarayoniga tatbiq etishi lozim. Shu bilan birga milliy o'ziga xosligimizni, asrlar sinovidan o'tgan an'analarimizni, hamisha iymon-e'tiqod bilan yashash kabi xayotiy tamoyillarimizni ham saqlab, ham yuksaltirib borishi va ularni o'quvchilar qalbiga singdirish zarur. Pedagog faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy xarakteriga ega. Ma'lumki, inson oldida biror muammo turgandagina ijodkorlikka ehtiyoj tug'iladi. Pedagog faoliyati ana shunday xususiyatga ega. Pedagogik ijodkorlarning asosiy mohiyati faoliyatining maqsadi va xarakteri bilan bog'liq. Pedagogik faoliyat kishi shaxsini, uning dunyoqarashi, e'tiqodi, ongi, xulq-atvorini shakllantirishdek umumiy maqsadga bo'ysungan son-sanoqsiz pedagogik masalalarni echish jarayonidir. Pedagog faoliyatidagi ijodkorlik ana shu masalalarni echish usullarida, ularni xal qila olish yo'llarini qidirib topa olishida ifodalanadi.

Tarbiya jarayonida pedagogik ta'sir ko'rsatish o'quvchiga u yoki bu yuksak axloqiy sifatlarining mohiyatini anglatish jarayonida qo'llaniladigan pedagogning ish usullaridan biridir.

Xar bir shaxsga ta'sir etishi tarbiyachining pedagogik maxorati va professionalligiga bog'liqdir. Bunda:

- o'quvchining ijobiy xatti-xarakatlariga to'sqinlik qilmasligi;
- talablarni aniq va tushunarli bo'lishi;

- qo'yilgan talab va vazifalarni natijasini bilish;
- talab ochiq chexra, samimiy bir oxangda berilishi, iltimos, maslaxat, yaxshi niyatga chorlashi;
- talab o'quvchilarning yoshi, bilimi saviyasiga mos bo'lishi.
- talablarda kesatish, luqma, minnat qilish bo'lmasligi va boshqalarga e'tibor berish lozim.

Kishilik jamoasi paydo bo'lgan davrdan boshlab inson xech qachon yolg'iz yashay olmagan. Jamoalarni tashkil qilish va uning tarbiyaviy ta'sirini nazariy va amaliy asoslari mutafakkir va olimlar tomonidan o'rganilib, u ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Tarbiyachining navbatdagi vazifasi o'quvchi-yoshlar jamoasini tashkil qilish, tarbiyalash va jipslashtirish borasidagi nazariy bilimlarni o'zlashtirib, ilg'or tajribalarga suyanib, ularni tarbiyaviy jarayonida o'rtoqlik, do'stlik, o'zaro hamkorlik, hamjixatlik, o'z-o'zini tarbiyalash va boshqarish kabi jamoatchilik sifatlarini shakllantirish maxoratini o'zlashtirishdan iborat. Ular:

- Xar bir o'quvchi shaxsida o'zaro munosabat aloqalarini yaratish;
- o'quvchilar kundalik faoliyatlarining hamma qirralarini jamoada jipslashtirish;
- shaxsiy manfaatdan jamoa manfaatini yuqori qo'yishga o'rgatish; jamoada bir-biriga mexr-oqibatli, muruvvat va saxiylik do'stona hamkorlik mavjud bo'lsa, u katta tarbiyaviy kuchga aylanadi.

Kasb-xunar ta'limi kolleji o'quvchilar jamoalarini, tashkil qilishda pedagogdan turli-tuman usul va vositalardan maxorat bilan foydalanish talab qilinadi:

1. Pedagog jamoa a'zolarini yangi sharoitga moslashtirish jarayonida ularga ishonch, xurmat, xushmuomalalik talablarni to'g'ri qo'ya bilish, shu bilan birga o'quvchini tushunish va eshita bilish maxoratiga ega bo'lishi kerak.
2. O'quvchilar jamoasidagi etakchi kuch-tayanch o'zagini tanlash.
3. Jamoa a'zolarining xar birining kuchiga, qobiliyatiga qarab topshiriqlar berish.
4. Jamoada yangi an'ana, qonun-qoidalarining dastlabki kurtagini yaratish va unga amal qilish.

5. Jamoa istiqbolini davr talabi bilan moslashgan xolda belgilash talab qilinadi.

Xar bir pedagog pedagogik faoliyat yuritar ekan, berayotgan ta'lim-tarbiyasining yanada samarali bo'lishi uchun o'z ustida muttasil ishlashi, bilimini, maxoratini o'stirishi, o'quvchilar bilan bo'ladigan munosabatlarni puxta o'ylab, ularning ko'ngliga ozor etkazmasdan ish olib borishi lozim. Muomala madaniyati, o'zini tuta bilishini nazorat qilishi kerak. Xar bir tarbiyachining dunyoqarashi uning muomalasida namoyon bo'ladi. Muomalaning asosiy vositasi - tildir. Xalqimizda shunday naql bor "O'quvchi-shirin so'zning gadosi". Shunday ekan tarbiyachi muomala jarayonida juda extiyotkor bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Alisher Navoiy muomala qiluvchi shaxsning maxorati xaqida shunday deydi: "Shirin so'z ko'ngillar uchun bamisoli asaldir."

Shuning uchun ham pedagog xar on nutq madaniyatiga qattiq, e'tibor berishi, o'zining psixologik, estetik, jismoniy, axloqiy jixatlarini namuna xolatda namoyon etishi muxim. Yuksak tuyg'u madaniyatiga ega bo'lgan pedagog o'quvchilarning kayfiyati, noxushligini darrov faxmlaydi.

qo'pol, odobsiz gaplarga o'rin qoldirmaslik, o'quvchi shaxsiga tegadigan qo'pol muomala qilish pedagogning faoliyatiga putur etkazadi. O'quvchi axvolini tushunish unga hamdard bo'lishi, madad berish kerak. Pedagog o'zining pedagogik faoliyatida avvalo to'g'ri so'z bo'lishi, ishlarini adolat bilan olib borishi kerak. Bu xislat tarbiyachi bilan o'quvchi o'rtasida yaqinlikni oshiradi, chunki adolat insonlar xulqini baxolovchi muxim mezondir.

Xazrat Alisher Navoiy aytganidek: «Loqal bir xarf o'rgatgan ustozning xaqqini yuz ming ganju xazina bilan ham uzib bo'lmaydi». Biz ulardan umrbod qarzdormiz.

1.3. Pedagogik faoliyatda ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish.

O'rta maktabdagi o'qitishning quyidagi shakllari mavjud. Pedagogik muloqot jarayonidagi ma'lumotlar almashuvi asosan uch shaklda amalga oshiriladi: monolog, dialog, polilog. Monolog - ma'ruzachi yoki o'qituvchining tinglovchilar yoki o'quvchi talabalar qarshisiga chiqib nutq so'zlashi, darsni bayon etishidir.

Tinglovchilar ancha passiv mavqeda bo'ladilar va bu narsa ma'lumotning faqat kichik bir qisminigina idrok qilish va eslab qolishiga sabab bo'ladi

Dualog - o'quv mavzusi yoki muammoni guruh sharoitida o'qituvchi bilan birgalikda va hamkorlikda muhokama qilish yo'lidir. Shuning uchun bu usul tinglovchilarni nafaqat faollashtiradi, balki auditoriyada ijodiy muhitning bo'lishi va fikrlar almashuvidan har bir ishtirokchining manfaatdorligini ta'minlaydi. Ya'ni tinglovchilar o'quv jarayonining ob'ektidan uning sub'ektiga aylanadilar.

Dialog jarayonida uni tashkil etgan shaxs auditoriyaning u yoki bu muammo yuzasidan bilimlarini diagnostika qilish va shunga mos tarzda o'z ishini tashkil etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Polilog - guruh ichidagi munozaradir. U talabalarning faolligini yanada oshirish, ulardagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadida ishlatiladi. Polilog jarayonida guruh a'zolarining har biri muhokama qilinayotgan masala yuzasidan o'z fikrini bildirish imkoniyatiga ega bo'ladi, o'qituvchi esa ushbu jarayonning tashkilotchi sifatida talabalar faoliyatiga bevosita aralashmaydi.

Idrok etish-bilish faoliyati xarakteriga ko'ra metodlar tushuntirish – illyustrativ (axborot – retseptiv). Ularning xarakterli xususiyatlari; bilimlar “tayyor holda” tavsiya etiladi; bu bilimlarni idrok qilish tashkil etiladi; bilimlar idrok (retseptsiya) qilinadi va tushunib olinadi, xotiraga joylashtiriladi; reproduktiv metod: bilimlar tayyor holda tavsiya etiladi, bilim nafaqat bayon qilinadi, balki tushuntiriladi; bilimlar ongli o'zlashtiriladi, ularning tushunilishi va eslab qolinishiga erishiladi, bilimlarning mustahkamligi tez-tez takrorlash yo'li bilan ta'minlanadi.

- muammoli bayon qilish metodi;
- qisman ijodiy (evristik) metod. Bilim tayyor holda tavsiya etilmaydi, balki u mustaqil ravishda egallanadi; yangi bilimlarni qidirish, izlash tashkil etiladi; vazifalar bo'yicha mustaqil fikr yuritiladi, muammoli vaziyatlar yaratiladi va hal qilinadi;
- tadqiqiy metod. Bunda muammo belgilab olinadi, muammoning tadqiqoti jarayonida bilim egallanadi

Audial shaxs Audial o'quvchilar eshitish qobiliyati ustunligi bilan ajralib turadilar. Ular eshitgan nasalarini tez va yaxshi o'zlashtiradilar. Bunda o'qituvchi fikrlarning aniq va ravon etkazib berilishiga ahamiyat qaratishi lozim

Vizual shaxs Vizuallarda ko'rish qobiliyati yaxshi rivojlangan bo'lib, ular ko'rgazmali tashkillangan darslarning ma'lumotlarini yaxshi o'zlashtiradilar

Kinestetik shaxs Kinestetiklar esa amalda bajarish bilan bog'liq holda o'zlashtirishda yaxshi natijalarga erishadilar. Kinestetiklarning motor va taktil turlari farqlanadi. Motor kinestetiklar materialni xatti-harakatlarga tayanib, taktil kinestetiklar tuyish sezgisi ustunligi asosida o'zlashtiradi (1-jadval)

1- jadval

O'quvchilarni idrok etish-bilish faoliyati

Xolat va jarayonlar	Vizual	audial	Kinestetik
Ko'z qarashlari	Yuqoriga 	yonga 	pastga 
Imo-ishoralar bo'ladi			
Muloqatda fazoviy joylashuvi	Uzoq masofa 	O'rta masofa 	Yaqin masofa 
Ovozi	Baland 	Yarim ovoz 	Past 
Stulga o'tirishi	qirg'og'iga o'tiradi	o'rtasiga o'tiradi	qulay suyanib o'tiradi
o'qishi	o'zi o'qishni yoqtiradi	Birovlarning o'qishini istaydi (tinglaydi)	o'qib turib qo'llari bilan yordam beradi
o'qitish kerak	Ko'rsatmali vasitalar orqali	Eshittirish vositalari orqali (audio tasmlar)	Ko'l xarakatlari yordamida
Shovqinga e'tibor berishi	Kam e'tibor beradi	Diqqati buziladi	E'tibor beradi

Ta'lim – o'qituvchi va o'quvchining o'zaro faoliyati. Belgilangan maqsad, mazmun va dastur o'qituvchining faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qishni boshqarish kutilgan natijani xosil qiladi.

O'qish – o'quvchining faoliyati. O'qituvchi o'quvchining yordamida ta'lim vazifalarini bajaradi, insoniyatning ijtimoiy – tarixiy tajribalarini o'zlashtiradi.

Rivojlangan pedagogik faoliyati kishini o'zi duch keladigan xodisalarni taxlil etish va umumlashtirish tajribasi bilan boyitadi. Bu esa o'z sheriklari axvolini faxmlab, bilib olish va ular xaqida xukm yuritish qobiliyatini oshiradi. Nixoyat pedagogning talabalar bilan kundalik muomilasi shunga olib keladiki, u talabalarning xatti xarakatlaridagi chuqur ma'no va xaqiqiy sababini turli vaziyatlarda payqab oladi, buning uchun namuna sifatida o'zi tez - tez qayd qilgan dalillardan va talabalarning xulq-atvor usullaridan foydalaniladi. Bu narsa pedagoglik faoliyatida ayniqsa sezilib turadi. Bu qonuniy bir xoldir. Chunki "Biz kundalik xayotda odamlar bilan muomalada bo'lar ekanmiz, ularning xulq — atvorini bilib olamiz, chunki biz uni guyo o'qiganday" bo'lamiz, ya'ni xulq — atvorning tashqi ko'rinishlari ahamiyatini tushunib olamiz va shu tariqa kontekstda xosil bo'lgan o'zining ichki psixologik rejasiga ega bo'lgan tekstni ma'nosini ochib beramiz. Bu "o'qish yo'l —yo'lakay bo'ladi, chunki atrofimizdagilar muomala jarayonida bizda ularning xulqiga doir ma'lum darajada avtomatik tarzda mavjud bo'lgan psixologik ma'no xosil bo'ladi.

Pedagogning talabalar bilan muomalasi ular o'rtasidagi uzviylikni to'ldiruvchi vazifasini ham bajaradi. Shu munosabat bilan tarbiya uzluksiz jarayon ekanligini nazarda tutish kerak. Talabalarga nisbatan tarbiyaviy vazifani bajaruvchi katta yoshdagi kishilar, unga doimiy ta'sir etuvchi tizimiga ega emas. Xar bir talabaga xar xil ta'sirlar oqimi etib boradi. Ular bir - birlari bilan unchalik mos kelmasligi va ma'lum darajada biri ikkinchisiga zid kelishi mumkin. Pedagogning o'z tarbiyalanuvchilariga ko'rsatadigan turli tuman ta'sirlari unga tuzatish kiritishga intilishiga bog'liq. Albatta, bunga talabalarga munosabat uning shaxsiy sifatlariga qarab boshqariladi. Muammolarning ko'p yoki oz darajada bo'lishi inobatga

olinadi. Pedagogik qobiliyatlar strukturasi aql, idrok, xotiravoblik, tanqid ko'z bilan qarash, sobitqadamlik, notiqlik, so'z boyligi va xotiralar muhim rol o'ynaydi.

Ta'limning etakchi elementi maqsad xisoblanadi. Pedagog o'quv jarayonining bolalar bilan o'zaro ta'sirining ideal natijalarini tasavvur qiladi. Umumiy va bosh maqsadlar – bolalarga bilim, malaka, ko'nikmalarning jami o'quvchilarning aqliy imkoniyatlarini ishga soluvchi maqsadlarni qo'yadi. Pedagog o'z oldiga doim bilimlarni egallashga qaratilgan xususiy konkret maqsadlarni qo'yadi. Umumiy va xususiy maqsadlar bilan birga o'quv jarayonida qo'shimcha maqsadlar ham bor: shaxsni shakllantirish, yuqori tarbiyaviy natijalarga erishish. Maqsadlarning ruhiy-pedagogik ahamiyati shundaki, o'qituvchining ijodiy kuchlarini mobilizatsiya qiladi va ta'lim jarayonini tashkil qiladi, o'quvchilarning o'zaro ta'siri va samaradorligini oshiradi, birmuncha samarador mazmuni, metodlari, ish shakllarini nazarda tutadi. Agar maqsadlarni o'quv jarayonida nafaqat o'qituvchi, balki o'quvchi ham tushunsa, maqsad birmuncha tezkorroq tempda ishlaydi.

Eng asosiy elementlardan biri, ijtimoiy tajribalarning mazmuni, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi xisoblanadi. U ob'ektni o'tkazish, o'qituvchining ishi va o'quvchilarning ongli o'zlashtirish metodi va aqliy rivojlanish kuchlari va ta'limning bilim va malakalari manbaidir. Fan va san'at, ijtimoiy o'zlashtirishning boshqa shakllari insonga zaruriy axborotlarning katta miqdorini o'zida ifodalaydi. Ilmiy axborotlar o'quv jarayonining elementi bo'lishi uchun qayta ishlanishi, xayot uchun dolzarbligi nuqtai nazaridan tanlanishi konkret ijtimoiy-tarixiy rivojlanish sharoitidagi o'quvchining yosh davrlarini xisobga olgan holdagi tajriba-sinov yo'li, qiyinlik darajasi, o'quvchilar uchun zaruriy axborotlarning o'zlashtirish darajasi va foydalanish darajasi bilan pedagogik fan tomonidan yo'qotilib boradi.

Ta'lim jarayonining markaziy figurasi. Uning sub'ekti bo'lib o'qituvchi – ta'lim va tarbiya mazmunining tashuvchisi, bolalar butun ongli faoliyatining tashkilotchisi xisoblanadi. Uning shaxsida pedagogik qadr-qimmatning ob'ektiv va sub'ektiv xususiyatlari ifodalanadi. U ob'ektiv bilim, malaka va ko'nikmalarning miqdorini o'zlashtiradi va shaxsiy qobiliyatlari me'yorida ularni shakllantirishni

tashkil qiladi.

Insonning dunyoga kelishi, tug'ilishi bu tabiiy-biologik xodisa. Uning o'z zamonasining rivoji darajasiga ko'tarilishi, mavjud tajribalarni egallashi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, tarixiy jarayonning faol ishtirokchisiga aylanishi uchun ijtimoiy xodisa – ta'lim-tarbiya berilishi zarur. Ta'lim-tarbiya kishilik jamiyati ibtidosidayoq paydo bulgan. Kattalar turmush jarayonida o'zlari orttirgan tajribalarni o'zidan keyingi avlodga o'rgatib borganlar. Kichik avlod esa o'z faoliyati davomida yana yangi muammolarga duch kelib, ularni echish barobarida yangi bilim va ko'nikmalarni egallab, oldingi avloddan meros kolgan bilimlarini yanada boyitib o'zidan keyingi avlodga qoldiradi.

Tabiiyki tarixiy rivojlanish jarayonida ta'lim-tarbiya jarayoni ham rivojlanib, mukammallashib bordi. Ibtidoiy davrning uzida bilim berish ham tabakalashib borgan. Masalan; qabila boshliqlarining farzandlariga qabilani boshqarishda zarur bo'ladigan bilimlar berish, diniy aqidalarni, xarbiy bilimlarni o'rgatish, eng pastki tabaqa bolalariga mexnat qilish, ishlashni o'rgatish zaruriyati tug'ilgan.

quldorlik davrida ham quldorlarning bolalari xukmronlikka, boshqaruvchilikka, xarbiy san'atga tayyorlanadi, quldorlarning bolalari esa og'ir ishlarni qilishga o'rgatildi. Mana shu jarayonda saboq berish, o'rgatish, o'qitish zaruriyati tug'ildi. Jamiyat rivojlangani sari maxsus, shu soxani egallagan odamlarga extiyoj tug'ildi.

Keyinchalik maktab va ko'p sonli o'quvchilarga extiyoj tug'ildi. Xozirga kelib esa yangi-yangi maxsus o'quv yurtlari vujudga keldi.

Jamiyat rivojlangani sari shu jamiyat talabiga javob beradigan shaxslarni etishtirish extiyoji ham ortib borgan. YOsh avlodni o'qitish va tarbiyalash soxasida tajribalarning boyishi, nazariy jixatdan kengayishi va xayotda qo'llanilishi natijasida pedagogika aloxida fan sifatida rivojlandi.

Pedagogika – yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishning mazmuni, maqsadi va vazifalari, moxiyati, qonun-qoidalari, uslublari, tashkiliy shakllari, amaliy asoslari, pedagogik faoliyat xaqidagi fandir.

Pedagogika ayniqsa bugungi notinch ijtimoiy o'zgarishlar davrida, xar bir insonning o'ziga xos unikalligida, bilimlarning ko'p qirraliligida, xayotiy

vaziyatlarning bir-biriga o'xshamasligida, murakkabligida juda ham zarur. Pedagogika fanining ob'ekti barcha ta'lim oluvchilardir.

Pedagogik tajriba asosi pedagog-muallim faoliyatining maxorati va o'quvchilarning bu faoliyatdagi rolining yig'indisidan tashkil topadi;

Pedagogik tajriba muallimning oliy o'quv yurtini tugatgandan so'ng asta-sekin to'planib, u real pedagogik faoliyat davrida asta-sekin yuzaga kela boshlaydi. Ilg'or pedagogik tajribaning paydo bo'lishi va o'sishida quyidagi kasbiy pedagogik bilimlar majmui yotadi:

a) Ta'limning maqsadi asoslari.

b) O'quvchilar ta'limining mazmuni va davlat ta'lim standartlari, talablari.

v) Xar bir o'quvchining psixologik-pedagogik diagnostik ma'lumotlari va shuningdek, ular faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari.

g) Pedagogik faoliyatga tizimli yondoshuv asoslari, uning mazmuni, tuzilishi va moxiyatlari.

d) O'qituvchining kerakli kasbiy zaruriy shaxsiy sifatlarini bilishi;

e) Xozirgi zamon pedagogik jarayoni rivojlanishining asosiy tendentsiyalari.

Bu ko'rsatilganlarning qaysi birlarining yo'qligi yoki rivojlanish darajasining etarlicha yuqori bo'lmasligi o'qituvchining yuksak darajali maxorat xosil qilish imkonini bermaydi.

Kasbiy-pedagogik bilimlar va ko'nikmalar umumiy xolda quyidagilarni o'z ichiga olishi zarur:

O'quv faoliyatining ob'ekti sifatida ta'lim mazmunini tanlash, didaktik tashkil etish va uzatish;

O'quvchilar bilan muloqotda bo'lish; o'quv jarayonida rivojlantirish va tarbiyalashdan foydalanish, o'quvchilarda faoliyatning mazmunini o'zlashtirishni amalga oshirish;

O'qituvchilik faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish;

Pedagogik qobiliyatlarni va kasbga ahamiyatli sifatarni rivojlantirish;

Butun tizimga to'la ravishda ta'sir ko'rsatuvchi qurollarni yaratuvchi pedagogik jarayonni tashkil etish.

Bilish va ko'nikmalar pedagogik maxorat asoslarini tarkibiy qismini tashkil etgani va amaliy faoliyat maxsuli bo'lgani uchun ular istalgan kasbiy faoliyatda katta rol o'ynaydi.

G.N.Kuzmina ta'kidlashicha, «Pedagogik maxorat» - bu inson tomonidan xosil qilingan qobiliyat bo'lib, u ma'lum faoliyatlar natijasida xosil qilingan bilimlar va ko'nikmalar asosida yaratiladi.

Shunday qilib, pedagogning bilimlari, bilimdonligi va ko'nikmalari pedagogik maxoratning tashkiliy qismi bo'lib, ular ikki xil bo'lishi mumkin:

A) kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlanish jarayonida qabul qilingan;

B) kasbiy pedagogik faoliyat jarayonida qabul qilingan;

Sherbakov bo'yicha «Pedagogik maxorat» bu o'qituvchi shaxsining barcha ruxiy xususiyatlari, uning bilimlari, bilimdonligi va ko'nikmalari yig'indisining ifodasidan iborat.

Bu kabi ta'riflarda shaxsning roli katta, albatta. U o'z bilimlari, bilimdonligi, ko'nikmalari o'zining shaxsiy sifatlari, ijodini ishga solib, o'quvchilar bilan birgalikdagi faoliyatini tashkil qiladi. Bu xolda o'qituvchining shaxsiy xususiyati katta ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, pedagogning shakllanishi lozim bo'lgan pedagogik maxoratining asosini quydagilar tashkil etadi: pedagog shaxsi, bilimlari va pedagogik tajribasi.

Ta'lim-tarbiyada o'qituvchi-murabbiylarning pedagogik maxoratini mukammal egallashi xal qiluvchi ahamiyatga egadir. Shu bois jaxonning barcha oliy yurtlarida bu masalaga aloxida yondashuv amalga oshirilmoqda.

Pedagogik maxorat pedagogik ixtisosligi faoliyatini mustaqil tarzda yuqori darajada tashkil etishni ta'minlovchi shaxsiy xususiyatlar majmuasidir.

Pedagogik maxorat bir qator komponentlardan tarkib topadi. U pedagogika va psixologiya bo'yicha ilmiy bilimlarni, ya'ni kasbiy bilimlar, kasbiy qobiliyat, pedagogik etika va pedagogik texnikani o'z ichiga oladi.

O'z fanini yaxshi biladigan, ammo pedagogik malakaga ega bo'lmagan pedagog o'quv jarayonida yaxshi natijaga erisha olmaydi. Chunki, o'z bilimlarini

talabalarga etkazish usullarini takomillashtirish ustida unday pedagog bosh qotirmaydi. Metodik ilmiy-tadqiqotlar olib bormaydi. Natijada o'zlashtirish past bo'ladi. Shuning uchun oliygox pedagoglari nafaqat o'z fanlarini, balki metodikani ham bilishlari va o'z faoliyatlarida metodik izlanishda bo'lishlari lozim. Pedagog ilmiy tadqiqot olib borish usullari bilan tanish bo'lishi va talabalarni ilmiy tadqiqot ishiga tortishi kelajakda aktiv pozitsiyaga ega bo'lgan shaxslarni vujudga kelishiga yordam beradi.

Namunaviy dastur, dastur, darslik va o'quv qo'llanmalar fanning xozirgi rivojidan kelib chiqqan xolda tuziladi. Pedagogning vazifasi aynan shundan iboratki – u mavjud standartlardan kelib chiqqan xolda va o'qitayotgan talabalarning individual xususiyat va bilimlari, qobiliyatlaridan kelib chiqqan xolda o'quv jarayonini shunday tashkil etishi kerakki, bu jarayonda talaba aktiv ishtirok etsin, charchamasin, qiziqsin, yangi bilimga ega bo'lsin va dars oxiriga borib o'z bilimini qo'llay olish darajasiga etsin. Xulosa qilib aytganda pedagogdan axborotni tez, oson etkazish, o'quv jarayonini hamma elementlarini muvofiklashtirish talab etiladi.

Dasturda belgilab qo'yilgan bilimlarni turli xil yo'llar bilan talabaga etkazish mumkin, ammo, pedagogning vazifasi eng qulay usulni topishdan iborat. Dasturgagina bog'lanib qolib uni izmida bo'lish shart emas. Programma asos bo'lib xizmat qiladi, ammo, pedagog bu dasturga ijodiy yondashishi va talabalarning qiziqishlari va qobiliyatlarini xisobga olgan xolda unga o'z o'zgartirishlarini kiritishi mumkin. O'quv jarayonini unumli bo'lganligini bildiruvchi asosiy xosil qilish va mustaqil ta'lim bilan shug'ullanishiga turtki bo'ladi.

Talabalarning bilish jarayonida pedagogning o'rni aloxida ahamiyat kasb etadi. Pedagog va talaba orasidagi jonli muloqot talabaga kamroq vaqt sarflab bilimlarni egallashga yordam beradi.

Kasbiy - pedagogik faoliyatning mavafaqqiyati xususiy pedagogik qobiliyatlarga bog'liq bo'ladi. Pedagogik qobiliyatlarning quyidagi guruxlari farqlanadi:

- ob'ektga (talabaga) nisbatan sezgirlik;
- kommunikativlik - insonlarga yuz tutish, xayrixoxlik, muomalalilik;
- pertseptiv qobiliyatlar - kasbiy etuklik, impatiya, pedagogik tuyg'u;
- shaxs dinamikasi – irodaga ta'sir eta olish va mantiqiy ishontira olish qobiliyati;
- xissiy barqarorlik - o'zini boshqara olish;
- kreativlik - ijodiy ish qobiliyati.

Pedagogning xususiy qobiliyatlariga bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash shaxsni tarbiyalash qobiliyati ham tegishlidir.

O'qitish, o'rganish va o'rgatish bo'yicha qobiliyatlariga quyidagilar kiradi:

- talabani tushunish, ko'rish va sezish, bunday tushunishning darajasini va xarakterini o'rnatish qobiliyati;
- o'quv materialini mustaqil tanlab olish, o'qitishning samara beruvchi usul va metodlarini belgilash qobiliyati;
- talabalarning individualligini xisobga olgan xolda o'qitish jarayonini tashkil etish qobiliyati;
- o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish qobiliyati;
- talabalarning katta odimlar bilan rivojlanishini tashkil etish qobiliyati;
- o'zining pedagogik maxoratini takomillashtirish qobiliyati;
- o'zining tajribasini boshqalar bilan baham ko'rish qobiliyati;
- mustaqil ta'lim olish va mustaqil takomillashish qobiliyati.

Pedagogik jarayonga qaratilgan pedagogik qobiliyatlarga quyidagilar kiradi:

- boshka insonning ichki xolatini to'g'ri baxolash, unga hamdardlik bildirish, hamnafas bo'lish qobiliyati (impatiya qobiliyati);
- taqlid qilish uchun namuna bo'lish qobiliyati;
- tarbiya jarayonida individual xususiyatlarni inobatga olish qobiliyati;
- muloqotning lozim topilgan uslubini, o'z o'rnini topish, kelisha olish qobiliyati;
- xurmat qozonish, talabalalar o'rtasida obro'ga ega bo'lish qobiliyati.

Yuqorida biz ilg'or pedagogik tajribalarning o'qituvchining pedagogik maxoratni egallashdagi o'rniga to'xtaldik. Endi esa bu tajribalarning qanday tarzda

ommalashtirishi masalalari xaqida ham fikr bildiramiz. Yurtboshimiz I.A.Karimov «Ta'lim xaqida» gi qonunda (1992 yilda) kadrlar: maktab o'qituvchilari xar uch yilda, oliy maktab o'qituvchilari esa xar bir yilda Davlat attesstatsiyadan o'tishlari zarurligini ta'kidladilar. O'qituvchilarning o'z tajribalarini oshirish manbalaridan biri ularning malaka oshirish tizimida ta'lim olishlari xisoblanadi. O'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutida ilg'or ish tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilarni ish usulublari kafedralar hamda shaxar miqyosida o'rganilib, ommalashtirilishi an'anasi bor. Bunda institutning xar bir kafedrasidan nomi berilgan professor - o'qituvchining ish tajribasi institutning ilmiy kengashiga olib chiqiladi, ishlarini ko'rsatayotgan pedagog faoliyatidagi qiziqarli metod, usul va vositalar, texnologiyalarni ko'rgazmali ravishda ifodalab, kengash qatnashchilari bilan birgalikda ish turlari ketma-ketligini bajaradi, rol' o'ynaydi. Agar ma'lum kafedra ishlari ommalashtirishga loyiq, deb topilgan shaxar makabi o'qituvchisi avval malaka oshirish tizimida ish tajribasini ko'rsatayotganda a'lo baxoga baxolansa, u endi rayon miqyosida ham o'z ilg'or tajribasini ommalashtiradi. Bunday o'qituvchilarning tanilishi va ishlarining boshqa o'qituvchilar tomonidan o'rganilishi uzluksiz ta'lim tizimining rivojlantirilishiga sabab bo'ladi. U tayyorlagan al'bom, stend, banner, plakat, tarqatma, xarita, texnologiyalar ko'p yillar professional potentsiallarining to'xtovsiz oshib borishini ta'minlaydi. Xozirda «Yil o'qituvchisi ko'rik-tanlovi» ana shunday iste'dodli o'qituvchilarning ish usullari va tajribalaridan o'rganish ko'rgazmasi bo'lib xizmat qilyapti.

II – BOB: 7-sinf geografiya darslarida O'rta Osiyoning suvlari mavzusini o'qitish usullari

2.1 7-sinf O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi darsligining mazmuni

O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi darslikdagi mavzular quyidagi soatlarga bo'lib ajratiladi. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi 1-yarim yillikda 34-soat berilgan. 2-yarim yillikda O'zbekiston tabiiy geografiyasiga 34-soat ajratilgan. Umumiy yillik soat 68-soatni tashkil etadi.

7-sinf

Geografiya

I- Bo'lim O'rta Osiyoning umumiy tabiiy geografik tasnifi

1. O'rta Osiyo tabiiy geografik o'lkasi xaqida tushuncha:

- O'rta Osiyo tabiiy o'lkasining geografik o'rni, chegaralari va o'ziga xos xususiyatlari;
- O'rta Osiyoning geografik tekshirilish tarixi;
- O'rta Osiyo axolisi siyosiy xaritasi.

2. **Geografik xaritalar, atlaslar globus va ular bilan ishlash:**

- Xarita andozalari (proeksiyalari) xaqida tushuncha;
- Geografik xaritalar va ularning shartli belgilari;
- Xaritalarning turlari. Globus ;
- Xaritalardan foydalanish;
- Topografik xaritalar;
- Topografik xaritalardan foydalanish;
- Vaqt o'lchovi. Soat mintaqalari. Taqvimlar

3. **O'rta Osiyoning geologik tuzulishi va rel'efi:**

- Geologik vaqt xisobi;
- O'rta Osiyo xududining rivojlanish tarixi. Foydali qazilmalar
- Er yuzasi tuzilishining asosiy xususiyatlari

4. **O'rta Osiyo iqlimi:**

- Iqlimga ta'sir etuvchi omillar;

- Xavo massalari. Siklon va antisiklonlar;
- O'lkamizning iqlimining ta'siri;
- O'rta Osiyo tag'larining iqlimi;
- O'rta Osiyodagi iqlimiy tafovutlar;

5. O'rta Osiyoning suvlari

- Umumiy tushuncha;
- Daryolari;
- Ko'llari va suv omborlari;
- Er osti suvlari;

6. O'rta Osiyo tuproqlari, o'simliklari va xayvonot dunyosi

- Tuproqlar xaqida tushuncha;
- O'rta Osiyo o'lkasiga tarqalgan tuproqlar;
- O'rta Osiyo o'simliklari;
- Cho'l va adir o'simliklari;
- Tog' va yaylov o'simliklari;
- Xayvonot dunyosi;
- Tabiat zonalari;

7. O'rta Osiyoning xududiy tasnifi:

- O'rta Osiyoning tabiiy geografik rayonlashtirish;
- Turon tabiiy geografik kichik o'lkasi
- Qozog'iston tabiiy geografik kichik o'lkasi
- 1 bo'lim yuzasidan yakuniy takrorlash

II- Bo'lim

8. O'zbekiston tabiatining umumiy tavsifi

- O'zbekistonning geografik o'rni, chegaralari va maydoni ;
- Er yuzasi, geologik, gelogik tuzilishi va foydali qazilmalari
- O'zbekiston iqlimi
- O'zbekiston ichki suvlari va suv boyliklari
- Ko'llari, suv omborlari va er osti suvlari
- O'zbekistonning suv boyliklaridan foydalanish va ularni muxofaza qilish

- O'zbekistonning tuproqlari, o'simlik va xayvonot dunyosi
- O'zbekistonning tabiiy boyliklari va ularni muxofaza qilish

10.Tabiat komplekslari tavsifi

- O'zbekistonning tabiiy geografik o'lkasi
- Chirchiq -Oxangaron tabiiy geografik o'lkasi
- Iqlimi va suvlari.Tuproqlari, o'simlik va xayvonot dunyosi
- Farg'ona vodiysi
- Iqlimi va suvlari.Tuproqlari, o'simliklari va xayvonot dunyosi
- Mirazacho'l
- Iqlimi va suvlari
- Tuproqlari, o'simliklari va xayvonot dunyosi
- Zarafshon vodiysi
- Iqlimi va suvlari
- Tuproqlari, o'simliklari va xayvonot dunyosi
- Qashqadaryo
- Iqlimi va suvlari
- Tuproqlari, o'simliklari va xayvonot dunyosi
- Surxandaryo
- Iqlimi va suvlari
- Tuproqlari, o'simliklari va xayvonot dunyosi

11.Qizilqum

- Er yuzasi, geologik, gelogik tuzilishi va foydali qazilmalari
- O'zbekiston iqlimi va ichki suvlari. Tuproqlari, o'simlik va xayvonot dunyosi
- Quyi Amudaryo
- Tuproqlari, o'simlik va xayvonot dunyosi
- Ustyurt
- iqlimi va ichki suvlari. Tuproqlari, o'simlik va xayvonot dunyosi
- Iqlimi va ichki suvlari. Tuproqlari, o'simlik va xayvonot dunyosi kabi mavzularga ajratilgan

2.2 O'rta Osiyoning suvlari mavzusini o'qitish usullari

O'rta Osiyo suvlariga daryolar, ko'llar, er osti suvlari, muzliklardagi suv, omborlari, kanal va ariqlardagi suvlar kiradi. Daryolar xo'jalik faoliyatida ahamiyati katta. O'rta Osiyo xududida daryo tarmoqlarning juda notekis tarqalgan O'lka xududini 70% er maydonining ishg'ol qilgan tekisliklar daryolar juda ozchilikni tashkil qiladi. Aksincha, tog' va tog' oldi xududlarida juda keng daryo tarmoqlari mavjud. O'rta Osiyo daryo tarmoklarining zichligi bir xil emasligi eng avvalo uning rel'efiga, iqlimiy xususiyatlarga bog'liq. Shuning uchun relefi baland, sernam yog'inga nisbatan bug'lanishi kam bo'lgan tog'li qismda yoqqan yog'inning ko'p qismi oqimga aylanib, soy va daryolarni xosil qiladi. Tog'larning g'arbiy qismi yiliga 1000-1500 mm. yog'in tushadi. Bu esa tog'larning g'arbiy yon bag'rida boshlanuvchi Norin, Zarafshon, Chirshiq, Qoradaryo kabi daryolarning sersuv bo'lishiga sababchi bo'lgan. Tekislik qismida esa, aksincha, yoz issiq, quruq, seroftob bo'lib, yillik yog'in miqdori 80-200 mm atrofida, lekin mumkin bo'lgan bug'lanish esa 1500-2000 mm ga etadi.

O'rta Osiyo daryolari asosan uning tog'li qismidan suv oladi. O'rta Osiyoda suv tuplaydigan uning tog'li qismida oqimning vujudga kelish miqdori va rejimi, tarqalishi hamma qismida bir xil emas. Bu tog'larning orografik tuzilishiga, balandligiga, yog'inlar mikdoriga bog'liq.

O'rta Osiyo daryolarini suvlarini nimadan va qanday manbalardan tuplashganligini bilish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. Daryolarning tuyinish manbai, uning oqimini xosil bo'lishiga binobarin rejimga ta'sir kursatadi. O'rta Osiyo daryolari ishida faqat bitta manbadan suv oladiganlar yo'q. O'rta Osiyo xududidan oquvchi daryolarning aksariyati, Tojikiston va Qirg'iziston xududida joylashgan doimiy qor va muzliklarning erishidan suv tupalaydilar.

O'rta Osiyo daryolarining tuyinishida muz, qor suvlaridan tashqari yilning issiq faslida yomg'ir suvlarning ham xissasi katta. Yomg'ir suvlarning xissasi jumxuriyat daryolarning yillik okimini taxminan 5-15% ni tashkil qiladi.

O'rta Osiyo daryolarning yana bir suv oladigan manbai bu er osti suvlari xisoblanadi. Bu manba daryolarning qish faslida tuyinib turuvshi asosiy manbadir. Shunday kilib O'rta Osiyo tog'larida vujudga keladigan daryolarning yillik suv oqimi Shults V.L. va R.Mashrapov ma'lumotiga kura 10% muz suvlari xissasiga, 5% yomg'ir suvlariga, 40% er usti suvlariga, 45% esa doimiy va mavsumiy qorlarning erishidan vujudga kelgan suvlar xisobiga tug'ri keladi. Daryolarning qaerdan va qanday balandliklardan boshlanishiga bog'liq xolda uning xissasi o'zgarib turadi. Shuning uchun V.L.Shults Turkiston daryolari tuyinish xususiyatiga kura 4 tipga bo'linadi.

1.Muzlik va qor suvlaridan tuyinadigan daryo.Tog'larning eng baland (4500 m dan yuqori) qismidan boshlanuvshi daryolar asosan muzlik va qorlarning erishidan suv oladi. Bundayo daryolarga Amudrayo, Zarafshon, Isfaramsoy, Sux, Isfara kiradi.

2.Qor va muzlik suvlaridan tuyinadigan daryo. O'rta Osiyo tog'larning dengiz satxidan 3400-4500 m. baland kismalaridan boshlanadigan Sirdaryo, Norin, qoradaryo, Chirchiq, Surxondaryo, Tanxoz kabi daryolar kiradi. Bu daryolarning suvi may-iyun oyida qorlar ko'plab eriganda ko'payib ketadi, yillik oqimining 30-40% ni tashkil etadi.

3.Qor suvlaridan tuyinadigan daryolar. Bu xildagi daryolarga 3400 m. dan, ya'ni doimiy qor chizig'idan pastdan boshlanuvchi daryolar kiradi. Bunday xil tuyinishlarga ega bo'lgan daryolarning suvi mavsumiy qorlar ko'plab eriy boshlagan mart-may oylariga tug'ri keladi

4.Qor va yomg'ir suvlaridan tuyinadigan daryo. Nixoyat, 4 xil daryolar 2000 m. dan pastda joylashgan erlardan boshlanadi. Ular asosan yomg'ir suvlaridan tuyinadi. Suv mart-aperl oyida ko'payadi. Yillik oqimining 80% i shu oylarda utadi. YOzning ikkinshi yarmida suv ozayib, ba'zan qurib qoladi. Bo'nga Zominsuv, Sheraboddaryo, Tursindaryo, Oxangaron, Kalas, kabi daryolar kiradi.

O'rta Osiyo daryo suvlarining xarorati va muzlash xodisasi uning organik dunyosi xayotida hamda xalq xo'jalikda muxim ahamiyatga ega. Daryo suvining

xarorati eng avvalo suv massasi bilan atmosfera xolatiga, so'ngra daryoga kelib quyilayotgan er osti suvining miqdori va xaroratiga, daryolarni qanday manbalardan tuyinishag bog'liq. O'rta Osiyo daryolari xar xil manbalardan suv olishligi tufayli xarorati xar joyda xar xil. Tekislikka chiqish joyda daryolarning ko'p yillik xarorat 14-15% ga ko'tariladi. O'rta Osiyo daryolarining suvi iyul - avgust oylarida eng issiq, yanvar - fevral oylarida eng sovuq bo'ladi. Mavsumiy qor va yomg'ir suvlaridan tuyinadigan daryo suvlari yozda issiq bo'lib, qishda soviydi. qishda shimoli-sharqiy sovuq xavo massasi ta'sirida xavo xarorati 00 dan pastga tushadi. Natijada daryo suvlari sovib, xarorat 00 dan pastga tushish natijasida, muzlash xodisasi xosil bo'ladi.

Amudaryo. O'rta Osiyodagi eng sersuv daryo. U Pomir tog'laridan oqib tushuvchi Panj va Vaxsh daryolarining qo'shilishidan hosil bo'ladi. Uzunligi 2540 km, xavzasining maydoni 309 ming km². Amudaryoning o'ng irmoqlari Kofirnixon, Surxondaryo va Sherobod daryolari hisoblanadi, chap tomondan (Afg'onistondan) Qunduzdaryo quyiladi. Amudaryo Qoraqum va Qizilqum cho'llari oralig'idan oqib o'tib Orol dengizlariga quyiladi. Yumshoq jinslarni yuvib kelishi tufayli uning suvi juda loyqa. Ana shu loyqa daryoning quyi oqimida – Xorazm voxasi va Qoraqalpog'istonda juda qalin yotqiziqlarni xosil qilgan. Mazkur loyqa haqiqiy mineral o'g'it vazifasini o'taydi.

Amudaryo Orol dengiziga quyar erida juda katta delta xosil bo'lgan. Amudaryo deltasi dunyodagi eng katta deltalardan biri hisoblanadi, uning maydoni 11 ming km²dan ortiq.

Sirdaryo. O'rta Osiyodagi eng uzun daryo. Uzunligi 3019 km ga yaqin, xavzasi 219 ming km². Markaziy Tyanshan tog'laridan boshlanuvchi Norin va Farg'ona hamda Oloy tog'laridan boshlanuvchi Qoradaryoni Baliqchi qishlog'i yonida qo'shilishidan hosil bo'ladi. Farg'ona vodiysidan chiqqach, daryo shimolga tomon oqa boshlaydi. Va shu erda unga o'ngdan Oxangaron Chirchiq, Keles daryolari kelib qo'shiladi. Sirdaryo shimolga tomon Qizilqumning chegarasi bo'ylab oqib, Orol dengiziga borib quyiladi. Daryo suvining eng ko'paygan vaqti iyunda bo'lib, apreldan to avgustgacha unda suv ko'p bo'ladi.

Ili. Ili daryosi Sharqiy Tyanshan tog'laridan boshlanuvchi Kunges va Xoliqtog'dan boshlanuvchi Tekes daryolarining qo'shilishidan xosil bo'ladi. Uzunligi 1384 km, xavzasining maydoni 154 ming km². daryo asosan qor va muzliklardan suv oladi. Ili Balxash ko'liga quyiladi. Daryo Qopchig'ay darasidan o'tgan joyda to'g'on qurilib, Qopchig'ay suv ombori bunyod etilgan.

Atrek. Eron xududidan Kopetdog'ning janubi-g'arbiy yonbag'ridan boshlanuvchi Zebaza va Zirov daryolarining qo'shilishidan vujudga kelib, Kaspiy dengiziga quyiladi. Uzunligi 635 km, xavzasi 26,7 ming km². qor va yomg'ir suvlaridan to'yinadi. Shu sababli mart-may oylarida suvi ko'payadi. Eng loyqa daryolardan xisoblanadi, loyqaligi 22 kg/m³.

Ko'llari. Notekis taqsimlangan, katta qismi tekisliklarda (daryo vodiylarida, deltalarida, qozog'iston past tog'larida, To'rg'ay botig'ida) joylashgan. Tog'larda ko'llar kamroq.

Tekislikda Orol, Balxash, Tengiz, Sarihamiy va boshqa ko'llar joylashgan. Orol O'rta Osiyodagi eng katta tabiiy ko'l xisoblanadi. Ko'l Turon tekisligining markazida joylashgan. Dengizning eng chuqur joyi uning g'arbiy qismida joylashgan (69m). Sharqiy va janubiy qismida u juda sayoz bo'lgan. Biroq 1960 yillardan boshlab Amudaryo va Sirdaryoning suvini katta qismini sug'orishga sarflanishi munosabat bilan Orol dengizining satxi va maydoni kamaya boshladi. Ayrim yillari, ayniqsa 1983-1985 yillardan keyin Sirdaryo Orolga bir daryoning suvlari esa 7-9 km³dan oshmadi. Shu tariqa Orol asta-sekin nuray boshladi. 35 yil ichida dengiz suvining hajmi kichrayib, uning satxi 16,5 m ga pasaydi, dengiz qirg'oqdan 80-100 km ga, ayrim erlarda esa 130-150 km ga chekindi. Orollar tutashib ketib, dengiz ikkita aloxida suv xavzasiga(1960 yilgacha) bo'linib qoldi. 1960 yilgacha Orol dengizining maydoni 68 ming km² bo'lgan bo'lsa, hozirda 30-31ming km² dan ham kamayib ketdi. Dengiz suvining sho'rliigi esa 10-11‰ dan 37‰ ga etdi.

Balxash. Balxash ko'li Oroldan so'ng ikkinchi o'rinda turadi, suvining hajmi jixatidan esa Orol va Issiqko'ldan so'ng uchinchi o'rinda turadi.

Balxash ko'li Qozog'iston past tog'larining janubida joylashgan, maydoni

17,8 ming km². g'arbdan sharqqa 605 km ga cho'zilgan, eng keng joyi 74 km, eng tor joyi (Uzunorol bo'g'ozida) 5km. Balxash sayoz ko'l bo'lib uning o'rtacha chuqurligi 6 m, eng chuqur eri sharqida 26,3 m, eng sayoz joyi Uzun orol bo'g'ozida 2m. suvining hajmi 100km³. g'arbiy qismi chuchuk 1,95g/l, bu qismiga Ili daryosi quyiladi. Sharqiy qismi sho'rroq (5‰).Balxash ko'liga Ili, qoratol, Oqsuv, Lepsa, Ayaguz daryolari quyiladi.

O'rta Osiyoning tog'li qismidagi ko'llarning deyarli barchasi tektonik ko'llardir. Ularga Pomirdagi qorako'l, Tyanshandagi Issiqko'l,Chatirko'l, Sonko'llar kiradi.

Issiqko'l. Tyanshan tog' tizmasidagi Kungay va Terskay Olatovlarining orasidagi botiqda joylashgan. Maydoni 6,2 ming km², uzunligi 182 km, eng keng joyi 58 km, suv miqdori 1732 km³, sho'rli 5,8‰. O'rtacha chuqurligi 279 m, eng chuqur joyi 702m. O'lkadagi eng chuqur ko'l xisoblanadi. Unga 60ga yaqin daryolar quyiladi. Suvning harorati iyulda 230S, yanvarda 3-40. qishda muzlamaydi, balandligi 2,5 m ga etuvchi to'lqinlar xosil bo'ladi.

Sarez ko'li. Pomirdagi eng katta to'g'on ko'l hisoblanadi. U 1911 yili 18 fevral kuni kechqurun zilzila natijasida tog' yonbag'ining qulashi natijasida, u Soy qishlog'ida Murg'ob daryosini (Panjning irmog'i) to'sib qolishi oqibatida vujudga kelgan. U dengiz satxidan 3222m balanda joylashib, uzunligi 61 km, eng keng joyi 3,4 km, maydoni 88 km², eng chuqur joyi 505m, suv hajmi 17,3 km³.

Suv omborlari. Qishloq xo'jalik ekinlarini namga eng chanqoq davrlarida suv bilan muntazam ta'minlash maqsadida O'lkada suv omborlar barpo etilgan. qoradaryoda – Andijon (Kampirovot), Norin daryosida – To'xtag'ul, Sirdaryoda – Chordara, Qayroqqum, Amudaryoda – Tuyamo'yin, Ili daryosida – Qopchig'ay, Vaxshda – Norak, Qashqadaryoda – Chimqo'rg'on, Surxondaryoda – Janubiy Surxon, Qoraqum kanalida – Xovuzxon suv omborlari qurilgan. Ulardan Qopchig'ay, To'g'tag'ul, Tuyamo'yin, Chordara va Qayroqqum suv omborlari eng yirik xisoblanadi.

Er osti suvlari. O'lkada tabiiy-geografik va geologik xususiyatiga ko'ra birbiridan keskin farq qiladigan 2ta gidrogeologik kichik o'lka – janubi – sharqiy

burmali tog'lar va tekislikdagi platformali artizian suvlari kichik o'lkalari mavjud.

Burmali tog'lardagi er osti suvlarining asosiy qismi – tog' jinslari yoriqlaridan va karst yo'laklaridan chiqadigan suvlaridir. Mazkur suvlar tog'larda ko'pincha buloqlar tarzida chiqib, tog'larning o'rta va yuqori qismlarida daryo suvlariga qo'shiladi, qisman sug'orishda foydalaniladi. Tekisliklardagi er osti suvlari artizian xavzalaridan iborat. Ushbu suvlarning manbai daryo o'zanlaridan shimilgan va tog' yonbag'irlaridagi suvlarning shimilishi natijasida vujudga kelgach suvlardir.

O'rta Osiyodagi eng yirik cho'llar – Qizilqum va Qoraqumning er osti qatlamlari ichimlik suv zaxiralariga juda boy. Chorva mollarini sug'orish va ichish maqsadida juda chuqur (200-250 m gacha) artizian quduqlari qazilgan. O'lka zamini mineral suvlarga ham boy. Bu suvlarning kimyoviy tarkibi insonga shifobaxsh ta'sir etadi. O'lkada tarkibida yod, vodorod sulfat, radon va boshqa mineral moddalar bo'lgan bir qancha er osti suv manbaalari mavjud va ular asosida qozog'istonning Chimkent viloyatida qorasuv, Farg'ona vodiysida – Chimyon, Polvontosh, Janubiy Olamushuk, Chortoq, Surxondaryoda – Jayrontepa, Tojikistonda – Obicharm mineral suvli shifoxonalar bunyod etilgan.

Muzliklar .O'rta Osiyo tog'larida umumiy maydoni 180-85 km² bo'lgan 8000 ga yaqin muzliklar mavjud. Ularning ko'pchiligi Pomir, Tyanshan, Oloy, Jung'oriya, Saur, Torbog'otoy tog'larida joylashgan.O'lkada muzliklarning 84,6% Pomir va Tyanshan tog'larida joy olishgan. Pomir tog'ida muzliklar uning g'arbida (Badaxshonda), Tyanshan tog'ini esa Xontangri va Falaba tog' tugunida joylashgan. O'lka tog'larida Er yuzasining o'rtacha kengliklaridagi eng katta vodiy muzliklari joylashgan.

O'lkaning eng shimolida joylashgan Saur – Torbog'otoy tog'larida umumiy maydoni 15 km² bo'lgan 18ta kichik muzlik joylashgan. Jung'ori Olatovida muzliklarning umumiy maydoni 1120 km² bo'lgan 814 ta muzlik mavjud. Tyanshanda muzliklarning umumiy maydoni 7132 km², o'lka muzliklarini 98%ini tashkil qiladi. Bu erda katta va kichik Inilchek muzliklari hisoblanadi. Oloy tizmasida 200dan ortiq muzlik mavjud.

Pomir tog'ida muzliklarning umumiy maydoni 8341 km kv, ular Pomir tog'i maydonini 11 % tashkil qiladi. Bu erda eng yirik muzliklar «Fanlar akademiyasi» tizmasi atrofidagi tog' tugunida joylashgan. Ulardan eng kattasi «Fedchenko» muzligidir. Uning uzunligi 77,8 km, kengligi 1.5 – 3,1 km, qalinligi yuqori kismida 1 km, o'rtasida 0,7 km, quyi qismida 0,3 - 0,4 km.

2.3. Tajriba sinov ishlari va ularning taxlili

7- sinf uchun bir soatlik O'rta Osiyo ichki suvlari darsining dars ishlanmasi.

O'rta Osiyo suvlari tushunchalari

(7-sinflar uchun)

Quyida e'tiboringizga uning Geografiyadan bir soatlik dars ishlanmasini xavola etamiz.

Maqsad:

- 1.O'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini yanada oshirish.
- 2.Og'zaki nutqini, xisoblash malakalarini rivojlantirish.
- 3.Mustaqil hamda mantiqiy fikrlashga o'rgatish.

Uslub: Baxs-munozara, suxbat.

Dars turi: Ochiq dars.

O'quvchilar guruxlarga ajratiladi va xar bir gurux uchun sardor saylanadi. Dars davomida guruxlar faoliyatini ana shu sardorlar boshqaradi. Bu o'quvchilarni o'z-o'zini boshqarishga va mustaqillikka o'rgatadi. Shuningdek, xar bir bolaning mashg'ulot jarayonida faol bo'lishiga imkoniyat yaratadi.

Darsning borishi:

O'quvchilar O'zbekiston Davlat madxiyasini kuylaydilar.

O'qituvchi: - qani o'quvchilar, darsimizni boshlaymiz. Bugungi darsimiz xar doimgidan o'zgacha.

«Zukkolar baxsi»da bellashamiz.

(Kuz fasli, bu faslda tabiat xodisalari xaqida savol-javob o'tkaziladi).

- O'quvchilar, xozir kuz faslidagi ob-xavodagi o'zgarishlar iqlim, tabiatdagi

xazonrezlik fasli xaqida savol-javob o'tkaziladi. Sinfni 5 ta guruxga bo'linadi.

Sardorlar o'z guruxlari bilan tanishtiradilar.

«Xumo» guruxi sardori:

- Yurtim O'zbekistonning o'z o'rnini bor jaxonda, Xumo qushi erkin, shod uchar moviy osmonda.

«Orzu» guruxi sardori:

- Sen ilm cho'qqisini kuching-la, zabt etarsan, Kelajakda albatta, orzuingga etarsan.

«Zukko» guruxi sardori:

Zukkolik fazilati - bola ziynati.

«Lochin» guruxi sardori:

- Ziyrak lochin qoqilmas,
qoqilsa ham yiqilmas.

«Jilg'a» guruxi:

- Jilg'aning oqishiga qara,
Bolaning xoxishiga qara.

Sinf taxtasiga topshiriqlar bosqichlarga bo'lib yozib qo'yiladi.

Ko'rik-tanlovning 1 bosqichi: Vatanim - O'zbekiston. Oltin sanalar.

2 bosqich:

- Mantiqiy topshiriq.

III bosqich:

IV bosqich:

IV bosqich:

V bosqich:

- Sardorlar bellashuvi.

Shartlar o'qituvchi tomonidan izoxlab beriladi va topshiriqlar guruxlarga tarqatiladi. Ikkinchi,

«Xumo» guruxiga beriladigan topshiriqlar

1. O'zbekiston qachon mustaqillikka erishgan?

2. Mantiqiy topshiriq O'rta Osiyo daryolari sanab bering

3. O'rta Osiyo ko'llari
4. O'rta Osiyoning eng uzun daryosiga tavsif bering
5. O'rta Osiyo daryolari xaritadan ko'rsating

Javob:

«Orzu» guruxi uchun savol va topshiriqlar

1. O'zbek tiliga davlat maqomi qachon berilgan?
2. Mantiqiy topshiriq Daryo xavzasi nima
3. O'rta Osiyoning eng sersuv daryosiga tarif bering
4. O'rta Osiyo er osti suvlari
5. O'rta Osiyo suv muzliklarini xartadan ko'rsating.

Javob:

«Zukko» guruxi uchun savol va topshiriqlar:

1. O'zbekiston Davlat Konstitusiyasi qachon qabul qilingan?
2. Mantiqiy topshiriq Daryo suvlari nimalarga sarf bo'ladi
3. Nima uchun suv resurslarini muxofaza qilish lozim
4. Nima uchun orol dengizi qurib bormoqda
5. O'rta Osiyo ko'llarini xaritadan ko'rsating

Javob:

«Lochin» guruxi uchun savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston Davlat bayrog'i qachon qabul qilingan?
2. Mantiqiy topshiriq Er osti suvlari qanday xosil bo'ladi
3. Ko'llarning qanday ahamiyati bor
4. Daryolarning to'yinish manbalariga ko'ra tasniflang
5. Yirik ko'l va suv omborlari nomini yozuvsiz xaritaga yozib qo'ying

«Bilimdonlar» guruxi uchun savol va topshiriqlar:

1. O'zbekiston Davlat gerbi qachon qabul qilingan?
2. Mantiqiy topshiriq Ko'l deb nimaga aytiladi
3. O'rta Osiyo ichki suvlariga nimalar kirishini sanab o'ting
4. O'zingiz yashab turgan joydagi daryo xaqida ma'lumot bering
5. O'rta Osiyo tekislik va tog'larini xaritadan ko'rsating

Javob:

Xar bir gurux va dars so'ngida xar bir gurux a'zolari dars jarayonidagi ishtiroki taxlil qilinadi. Bunga ko'ra birinchi o'rinni egallagan gurux, xar-bir guruxdagi faol qatnashgan o'quvchilar alloxida- alloxida taqdirlanadi.

Xay'at a'zolari guruxlarning baxolarini e'lon qiladi. g'oliblar maxsus sovg'alar bilan taqdirlanadi. O'qituvchi hamma o'quvchilarni darsdagi ishtiroki uchun raxmat aytib darsni yakunlaydi.

Tajriba sinov ishlarining natijalari

Bitiruv malakaviy Ishi bo'yicha tajriba sinov ishlarini pedagogik amaliyot o'tkazgan Namangan shaxar 7- umum ta'lim maktabida olib borildi. 7- "A" va 7-"B" sinflarda tajriba va nazorat sinflari sifatida tanlab mashg'ulotlar o'tkasdim. Dasr o'tishning noan'anviy metodlaridan, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, deyarli hamma darslarimda foydalanishga xarakat qildim.

7-sinflarda "O'rta Osiy ichki suvlari" uchun, ochiq dars o'tkazdim. Deyarli xar bir 7 "A" sinf o'qituvchisi foydalanadigan metod bilan o'tdim. Dars uchun maxsus tayyorgarlik ko'rdim. Ya'ni darsning ko'rgazmali metodidan foydalandim. Darslarni bitta sinfda an'anaviy usulda olib bordim.Darsda olingan baxolarni taxlil qildim. Shu mavzu bo'yicha boshqa 7 "B" sinfda dars o'tdim. Darsni noan'anaviy usullarda olib bordim. Darsda ko'rgazmali qurollardan, tarqatma ma'lumotlardan, axborot texnikalaridan foydalandim. Deyarli hamma o'quvchilarni baxolashga ulgurdim.

Bu kabi o'tilgan darslarimda, oddiy o'tilgan darslarga qaraganda dars samaradorligi va o'quvchilarning qiziqishi va dars sifati 10–15% gacha o'sib ketdi. Masalan, 7 "A" sinfda yuqoridagi darsni oddiy, o'tirib olib, o'quvchilarni birin – ketin doskaga chiqarib, kitobdagi nomer bo'yicha navbat bilan savol taklif qilaman. Dars tinch o'tdi. Lekin, baxolar quyidagicha, "5" baxo 8 ta, "4" baxo 10 ta, "3" baxo 10 ta "2" baxo 2 ta


Yuqoridagi noan'anaviy darsdan so'ng esa quyidagicha baxo oldilar.

"5" baxo 11 ta, "4" baxo 11 ta, "3" baxo 8 ta, "2" baxo yo`q.

Dars jonli, qiziqarli va ishchonlik ruxida o'tdi. Xar ikki darsni solishtirdim. Satistik taxlilni bir vaqtda nkkita parallel sinflardagi natijalar bo'yicha olib borildi.

Sinfi	O'quvchilar soni	qatnashdi	A'lo	Yaxshi	qoniqarli	qoniqarsiz
7-"A" sinf- 31 ta	31	30	8	10	10	2
7-"B" sinf- 30 ta	30	30	11	11	8	0

Yuqoridagi noananaiy tarzda o'tilgan (tarqatma ma'lumotlar, ko'rgazmali qurollar yozuvsiz xarita) darslarda o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyatlari shakllanganligini ko'ramiz.Tajriba 7- sinfida o'quvchilarni o'zlashtirish darajalari nazorat sinfiga qaraganda 10-12 % yuqoriroq ekanligini ularda dars natijalaridan ko'rish mumkin.



$31 \rightarrow 100$	$30 \rightarrow 100$
$18 \rightarrow x$	$22 \rightarrow x$
$30 \cdot xq18 \cdot 100$	$30 \cdot xq22 \cdot 100$
$xq1800:30 \approx 60\%$	$xq2200:30 \approx 72\%$

Agar nazorat sinflariga ham yuqoridagi tajriba sinfi kabi usullarni qo'llasak, o'ylaymanki, o'quvchilarni geografiya fani bo'yicha oladigan bilimlari yanada oshadi va mantiqiy ketma-ketlikka ega bo'ladi. Dars samaradorligi yanada oshagi. .

“Geografiya faning muvoffaqiyatli o'qitish ishida aosiy dushman – o'qituvchilarning bu fanga beparvolik bilan qarashi, unga befarqlik bilan munosabatda bo'lishidir. Agar o'qituvchi o'quvchilarni o'z faniga qiziqтира olsa, ishning yarmi bajarilgan bo'ladi. Xamma qiyinchiliklar oson engiladi, bordiyu qiziqтира olmasa, xech qanday pedagogik ta'sir bilan axvolni tuzatib bo'lmaydi.” (V. B. Bradis).

X U L O S A

Bitiruv malakaviy ishining natijalariga asoslanib, pedagogik tajriba-sinovni Namangan shaxar 7- umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchilarida O'rta Osiyonig suvlari mavzusini tashkil etishda quyidagi xulosalarga kelindi:

1.O'zbek xalqining asrlar mobaynida pedagogik tajribasi asosida vujudga kelgan xususiyatlari bilan birga umumiy odob ko'nikmalari, ommaviy ahamiyatga molik elementlar mavjud. Binobarin, xalq pedagogikasi milliylikning asosi ekanligi ilmiy gipotezamizda o'z tasdig'ini topdi.

2.YOsh avlodni geografik bilimlar bilan tarbiyalashdagi natijalar tadqiqot ilmiy farazining asosliligini ko'rsatdi. Chunki o'z yurtining tabiati va resurlarini muxofaza qilishdek tarbiyadagi o'zgarishlar dars samaradorligini va ularning ilmiy jihatdan asoslashga erishildi

3.Qadimgi merosimizda shakllangan geografik konuniyatlar natijasida yaratilgan o'lka tabiati va ichki suvlarini ilmiy jixatdan o'rganish nechog'lik zarur ekanligi dars jarayonida ma'lum bo'ldi.

4. Baxs-munozara, suxbat (noananaviy) darslarimda, oddiy o'tilgan darslarga qaraganda dars samaradorligi va o'quvchilarning qiziqishi va dars sifati 10–15 % gacha samara berganligi sababli darslarni har doim yuqori yangi pedagogik texnologiyalar (usullar) asosida olib borish maqsadga muofiqdir.

Tadqiqot jarayonida amalga oshirilgan pedagogik tadqiqotlardagi yuqori sinf o'quvchilari bilan ta'lim-tarbiya ishlarini olib borishda o'zbek xalqining odobiga yaxlit yondashmaslik kabi kamchilik va nuqsonlar hisobga olindi. Tadqiqotni tashkil qilishda yuqori sinf o'quvchilarining shaxsiy iqtisodiy tarbiasini kamol toptirishning hamma bosqichlarida ilg'or iqtisodiy tarbiya usullaridan foydalanishga suyanib ish tutilishi zarurligi aniqlandi.

Tadqiqot davomida yuqori 7- sinf o'quvchilari bilan geografiya fanlarida ta'lim-tarbiya ishlarini olib borishda etnopedagogik ma'lumotlardan foydalanib, iqtisodiy tarbiyaga doir ko'nikma va malakalarni baholash mezonlari ishlab chiqildi.

Yuqori sinf o'quvchilarini tarbiyalashda geografik bilimlarga asoslanib, kishilar

o'zaro munosabati, halol va poklik, tejamkorlik faoliyati shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Milliy odob va iqtisodiy tarbiya yuqori sinf o'quvchilarida turli his-tuyg'ular jarayonida ularga axloqiy ta'sir ko'rsatdi. Yuqori sinf o'quvchilarida kamtarlik, boylikka uchmaslik, halol va vijdonlilik motivlari vujudga kelishining amaliy mexanizmlari ishlab chiqildi

O'qituvchi darsni jonli, qiziqarli va izchil chiqishi uchun qo'lidan keladigan hamma ishni bajarishi kerak.

Yuqorida men o'z tajribalarimdan kelib chiqib shunday dars o'tishning bir necha usulini, bir necha turini ko'rsatishga xarakat qildim. O'zim, bitiruv malakaviy ishini mavzusini olgach, amaliyotda bir nechta noan'anaviy va didaktik o'yinlar bilan tuzilgan darslarni o'tdim. Izlandim, xarakat qildim. Buning natijasida sinfmda geografiyadan past o'zlashtiruvchi, o'zlashtira olmaydigan o'quvchilarning, geografiyaga qiziqib, o'qib, o'rganib, darslarda ishtirok etganlari, uyda vazifalardan tashqari, ertangi kun mavzusi uchun kerak topshiriqlarni olishga intilishlarini guvoxi bo'ldim, Ketma-ket o'tilgan didaktik o'yinlardan so'ng sinfda ulgurmovchi o'quvchi qolmadi. Faqat past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bo'lib ular ozchilikni tashkil etadi. Bu ishimni davom etdirib dars o'tishning turli – tuman metodlarini qo'llab, amaliyot oxirigacha 7-sinfda past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni ham yaxshi o'quvchilar safiga ko'tarishga harakat qildim.

Men dars o'tishning bu usullarini har bir o'qituvchi o'z darsida qo'llashini tavsiya etaman. Bu usullar bilan dars o'tgan o'qituvchilar bir – ikki darsdayoq qilgan mehnatining samarasini ko'ra oladi.

Darsda muximi o'quvchini qiziqitira olish bo'lib, buni uddalay olgan o'qituvchi albatta dars o'tish oldidan o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishadi. Kelajagimiz poydevori bo'lgan yosh avlodni tarbiyalashda beparvolikka yo'l qo'yib bo'lmaydi

Adabiyotlar ro`yhati.

1. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir Vazirlar Maxkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi 16 yanvar
2. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 28 yanvar'.
3. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Prezident I. Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 30 yanvar'.
4. O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahqam poydevoridir. – Prezident I. Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2009 yil 6 dekabr'.
5. O'zbekiston Respublikasining Tadbirkor va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risidagi qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi, № 5, 1999.
6. Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi “Barcha reja va dasturlarimiz – Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” nomli ma'ruzasi. 2011 yil 22 yanvar.
7. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi

Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 28 yanvar'.

8.Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Prezident I.Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 30 yanvar'.

9.O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahqam poydevoridir. – Prezident I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2009 yil 6 dekabr'.

10.O'zbekiston Respublikasining Tadbirkor va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risidagi qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi, № 5, 1999.

11.Aktsiyadorlik jamiyatlarini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 22 avgust 361-sonli Qarori // Xalq so'zi, 1998 yil 25 avgust.

12.Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Asarlar, 3-jild. –T.: O'zbekiston, 1996. –278 b.

13.Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lidan. Asarlar, 6-jild. –T.: O'zbekiston, 1998. –429 b.

14.Barkamol avlod orzusi. –T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2000. –246 b.

15.Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish kontsepsiyasi //Karimov A.A., Imomov e.Z. va boshqalar. –T.: Sharq. 2002. -15 b.

16.Umumiy o'rta ta'lim kontsepsiyasi //Xalq ta'limi, 1992, 2-son.

17.Abduqodirov A.A., Hayitov A.G'. Beysik dasturlash tilidan test topshiriqlari. - T., 1999. –60 b.

18. Abduqodirov A.A., Hayitov A.G'. Informatika va hisoblash texnikasi asoslaridan mashqlar to'plami /8-sinf uchun. -T.: Sharq, 1996. –48 b.
19. Abduqodirov A.A., Hayitov A.G'. Informatika va hisoblash texnikasi asoslaridan mashqlar to'plami /9-sinf uchun. -T.: Sharq, 1996. –80 b.
20. Azlarov T.R. Informatika va hisoblash texnikasi asoslari kursini milliy maktablarda o'qitishni takomillashtirishning metodik sistemasi. Ped. fan. nom. ... diss. -T., 1993. –150 b.
21. Александров Г.Н., Исакова Л.С. Модели процесса обучения и разработка программных педагогических средств.
http://vio.fio.ru/vio_01/Present/ITO/1998-99/K/aleksandrov.html
22. Аллаяров И.А. Дидактические основы активного обучения. Дис. ... д-ра пед. наук. -Т., 1994. –279 с.
23. Андреев А.А. Дидактические основы дистанционного обучения в высших учебных заведениях. Дисс. ... д-ра пед. Наук
24. Анисимов В.В. Методические особенности применения пакета прикладных программ в обучении математике и информатике. Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. -М., 1990. –18 с.
25. Апатова П.В. Дидактические аспекты компьютерного обучения. –М.: Педагогика, 2002. -168 с.
26. Арзамасцев А.А., Китаевская Т.Ю. и др. Компьютерная технология оптимального проектирования учебного процесса //Ж. Информатика и образование, 2001, № 4, -Б. 79-82.
27. Aripov M.M., Muhammadiev J.O'. Informatika, informatsion texnologiyalar //Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. –T.: TDYuI, 2004. –B. 275.
28. Ахлебинин А.К., Ахлебинина Т.В., Горбач М.Г., Нифантьев Э.Э. Подсказка как способ активизации мыслительной деятельности учащихся //Ж. Информатика и образование, 2000, № 3, -Б. 53-57.
29. Ahatova H. O'quv materialini o'rganishda tadqiqiy usul //J. Xalq ta'limi, 1998, 1-son. 27 b

30.Бабаева Ю.Д., Войскунский А.Э. и др. Диалог с ЭВМ: психологические аспекты //Ж. Вопросы психологии, 1983, № 2, -Б. 25-34.

31.Babanskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumiy ta`lim maktabida o`qitish metodlari. - T.: O`qituvchi, 1990. –230 b.

32.Барибина И.А. Тенденции развития автоматизированных обучающих систем для средней школы (<http://www.BITpro.ru/ITO/1995/b/barybina.html>)

33.Bahromov A. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va yangi axborot texnologiyalari //J. Xalq ta`limi, 1998, 2-son. 48 b

Internet saydlari.

<http://www.ttesi.uz>

<http://www.tfi.uz>

<http://www.cer.uz>

<http://www.gov.uz>

<http://www.ziyonet.uz>

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
TABIIY FANLAR FAKULTETI**

5140600- geografiya ta'lim yo'nalishi

bitiruvchisi **Nurmuxammadova Kamola Mirjalol qizining**

Namangan viloyatining sug'orilish tarixi mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga DAKning xulosasi NamDU DAK OUMTVning bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo'yiladigan talablar haqidagi 09.06.2010 yil 225-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Nizomga asosan bitiruvchining malakaviy ishi bo'yicha quyidagi xulosaga keldi:

№	Bitiruv malakaviy ishining darajasi	Ball
1.	Xajmi va sifatli rasmiylashtirish (tushuntirish xajmi 10-15 ming so'z xajmida, chizmalar A2 formatli qog'ozda 5-6 varaq bo'lishi kerak):	
	A) talabga javob beradi	10
	B) talabga javob berishi to'la emas	8
	V) rasmiylashtirish sifatli emas	6
2	Mavzuning ta'minlanishi	
	A) buyurtmachi tashkilot tavsiya qilgan	10
	B) davlat dasturi yoki grant loyixasi bo'yicha	8
	V) NamDU dasturi yoki boshqa dolzarb muammo	6
3	Mavzu dalzarbligini asoslash:	
	A) yetarli darajada asoslangan	10
	B) yetarli darajada asoslanmagan	8
	V) noaniq asoslangan	6
4	Maqsad va vazifalarini ifodalanganligi:	
	A) aniq	10
	B) aniqligi to'la emas	8
	V) aniq emas	6
5	Ilmiy-tadqiqot usullaridan foydalanish:	
	A) to'la	10
	B) qisman	8
	V) yetarli foydalanmagan	6
6	Olingan natijalarni yangilik va ishonchlik darajasi:	
	A) yangi va ishonchli	10
	B) ilgari olinganga qiyoslangan	8
	V) ishonchligi to'la emas	6
7	Ximoya qismining mazmuni:	
	A) bevosita qo'llshaga tavsiyalar berilgan	10
	B) tavsiyalar ishonchli emas	8
	V) tavsiyalar tushunarsiz va umuman berilmagan	6
8	Adabiyotlardan foydalanish?	
	A) Xorijiy, O'zbekiston Respublikasi ilmiy jurnallari, monografiyalar, internet materiallaridan yetarli miqdorda	10
	B) ilmiy adabiyotlardan yetarli qisman foydalangan	8
	V) faqat darslik, o'quv qo'llanma, metodik ko'rsatmalar, ma'ruza matnlari, ma'lumotnomalar va boshqalardan	6
9	Ximoya (ma'ruza) qilish:	
	A) a'lo	10
	V) yaxshi	8
	V) qoniqarli	6
10	Tashqi taqriz:	
	A) a'lo	10
	b) yaxshi	8
	V) qoniqarli	6
	BMI bo'yicha yig'ilgan yakuniy ball	

Izox: xar bir band bo'yicha aniqlangan ball doiraga olib chiqiladi va umumiy yig'ilgan ballni 100 ga nisbatan foizi chiqariladi.

Talabning BMI bo'yicha to'plangan reyting, bali ____%

DAK rasi: _____

DAK rasi o'rinbosari: _____

A'zolari: _____

Kotib(a) _____

M.O' _____

g.f.d.prof. A.Soliyev

dots. A. Nazarov

g.f.n. O.Mirzamahmudov

prof. B.Kamalov

o'qit. S.Saydaliyev

o'qit. A.Mavlonov

g.f.n. E.Soliyev

sana «__» _____ 2015

